

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI***

***Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti***

***TARIX fakulteti
ARXELOGIYA kafedrası***

***SHIMOLIY BAQTRIYA BRONZA DAVRI
QABILALARINING DAFN MAROSIMLARI VA
DINIY E'TIQODI***

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

***Bajardi: Arxeologiya yo'nalishi 405-guruh talabasi
Raimqulov Dadaxon Shuhratovich***

Ilmiy rahbar: t.f.n.Mirzaaxmedov Jamol Kamolovich

*Malakaviy bitiruv ishi Arxeologiya kafedrasida bajarildi. Kafedraning
2015-yil _____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya
etildi. (Bayonnoma № __)*

Kafedra mudiri:

dots.Jo'raqulova D.M.

*Malakviy bitiruv ishi YaDAKning 2015-yil _____dagi majlisida
himoya qilindi va ____ foizga baholandi (Bayonnoma №__).*

YaDAK raisi:

YaDAK a'zolari:

Samarqand – 2015

REJA

KIRIsh

I-BOB. SHIMOLIY BAQTRIYA BRONZA DAVRI YODGORLIKLARI

1.1. Qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari

1.2. Chorvador qabilalar madaniyati yodgorliklari

II-BOB. BRONZA DAVRI URUG‘ JAMOALARINING DAFN MAROSIMLARI

2.1. O‘troq dehqonchilik madaniyati jamoalarida dafn marosimlari

III. BRONZA DAVRI URUG‘ JAMOALARI DINIY TASAVVURLARINING ARXEOLOGIK MANBALARDA AKS ETISHI

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

ILOVALAR

Kirish

Yurtimiz qadim o'tmish tarixini tiklash, haqqoniy yoritish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Bu haqda yurtboshimiz ham o'z asarlarida tarix ilmining dolzarb masalalariga alohida e'tibor qaratadilar¹. Ota-bobolarimizdan qolgan merosni o'rganish, ularning urf-odatlarini, udumlarini tiklash – bu tarixni tiklash demakdir. Faqat uni xolislik bilan asl xolicha o'rganish, tahlil qilish o'rganilayotgan davr haqida aniq va to'g'ri tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Istiqlool bergan buyuk ne'matlardan biri ham tariximizni, milliy qadriyatlarimizni, o'zligimizni chuqur o'rganish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Xalqimiz orasida tariximizni bilishga bo'lgan qiziqishning keskin ortishi tufayli, ajdodlarimizning qadim urf-odatlarini, diniy e'tiqodi, madaniy, ma'naviy merosini o'rganish tarix ilmining dolzarb masalasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Shimoliy Baqtriya hududiy jihatdan janubiy O'zbekiston va janubiy-g'arbiy Tojikiston viloyatlarini o'z ichiga oladi. So'nggi bronza davrida bu hududlar kelib chiqishi jihatidan har xil bo'lgan uchta yirik tarixiy va etnomadaniy birliklarning (Sopolli madaniyati, Bishkent-Vaxsh madaniyati va Andronova madaniyati qabilalari) aloqa maydoniga aylanadi. Uning O'zbekiston qismida Sopollitepa, Jarqo'ton, Ko'zali, Mo'lali, Bo'ston, Kuchuktepa, Qiziltepa kabi o'troq dehqonchilik madaniyati yodgorliklari o'rganilgan. Ular qadimgi qishloqlar, ilk shahar harobalari, qadimgi qabriston yodgorliklari ko'rinishida bizgacha etib kelgan. Hozirgacha o'sha davr o'troq aholisining har xil nuqtalarda ikki mingdan ortiq qabrlari ochilgan. Ularda aholining etnomadaniy hayoti, dafn marosimlaridagi turli xil urf-odatlarini va diniy e'tiqodi o'z aksini topgan.

Shu bilan birga Sopolli madaniyatining so'nggi Mo'lali va Bo'ston bosqichlarida qadimgi dehqon jamoalarining ekologik, demografik va iqtisodiy xo'jalik zaruriyati tufayli Janubiy Tojikiston hududlariga kirib borishi kuzatiladi. Ular Janubiy Tojikistonning dehqonchilik va chorvachilikka qulay uch vohasining (Hisor vohasi, Vaxsh daryosining o'rta oqimi va Tairsuv daryosining yuqori oqimi

¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. – Тошкент, Ўзбекистон, 1999. – Б. 132-154.; Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент, Маънавият, 2008. – Б. 176 – 178.

hamda Parxar-Kulob vodiysi) tog‘ oldi hududlariga joylashadilar¹. Bu tipdagi yodgorliklarga Tandir-yo‘l, Nurek, Zarkamar, Qora pichoq, Kangurtut, Xo‘ja G‘oyib, Parxar, Qizlar qal‘a kabi qabristonlarni kiritish mumkin.

Janubiy-g‘arbiy Tojikistonning bir necha joylarida, jumladan Kangurtut, Teguzak, Daxana, Baraki-Kurug kabi manzilgohlar uchratilganki, ularning madaniy qatlamlarida Sopolli madaniyatining Mo‘lali va Bo‘ston bosqichlari sopol buyumlari bilan shimoliy dasht qabilalari (andronova) madaniyati sopollari birgalikda uchraydi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, qadimgi Baqtriya bronza davrida sug‘orma dehqonchilik sivilizatsiyalarining dasht qabilalari bilan bevosita madaniy aloqa ko‘prigiga aylangan va bu zaminda ilk davlatchilik asoslarining erta shakllanishiga olib kelgan. Ayniqsa, shimoliy Baqtriya hududlarida olib borilgan izlanishlar va ularning natijalari mil. avv. II-ming yillikning uchinchi chorak oxiri va to‘rtinchi choragidan boshlab, shimoliy Baqtriya o‘troq dehqonchilik jamoalari bilan cho‘l mintaqalari chorvador jamoalarining etnomadaniy uchrashuv, bir-birlari bilan qorishuv, etnik jihatdan aralashuv maydoniga aylanadi². Bu xilma-xil etnomadaniy manzara shimoliy Baqtriya bronza davri qabilalarining dafn marosimlari va shakllanib borayotgan diniy e‘tiqodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. shimoliy dasht qabilalarining (Andronova madaniyati) izlari Xisor vodiysida Qumsoy, Xovalin rayonida Tuyun qabristoni, Vaxsh daryosining yuqori oqimida Kirov nomli sovxoz hududidan topilgan manzilgoh, sharqiy Pomirdan va Bishkent-Vaxsh madaniyatiga tegishli Toshguzar manzilgohi misolida o‘rganilgan. Bundan tashqari Jarqo‘tondan, Bo‘ston qabristonidan ularga tegishli sopol parchalari va boshqa ashyoviy dalillar topilgan.

Shimoliy Baqtriyaning Tojikiston qismida yuqorida zikr etilgan yodgorliklarda hozirgacha 550 dan ortiq qabrlar ochilgan. Ularda turli diniy e‘tiqod va turfa xil urf-odatlar asosidagi dafn marosimlari kuzatilgan.

¹ Виноградова Н.М. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 12-13.

² Аскарлов А. Степной компонент в оседлых комплексах Бактрии и вопросы его интерпретации // “Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций”. Тез. докл. Советско-французского симпозиума по археологии Центральной Азии и соседних регионов. Алма-Ата, 1987. – Алма-Ата, 1989. – С. 57-58.

Shunday qilib, hozirgi kunda birgina shimoliy Baqtriya hududlarida bronza davriga oid xilma xil yodgorliklar, jumladan turli diniy e'tiqod va rang-barang diniy urf-odatlar aks etgan yodgorliklar o'rganilganki, ular haqida ilmiy adabiyotlarda juda qisqa, zaruriy holatlardagina ma'lumotlar berilgan. Ammo, bu bronza davri ajdodlarimizning diniy-ma'naviy va mafkuraviy hamda etnomadaniy hayoti bilan bog'liq juda katta qatlam ma'lumotlar hozirgacha yaxlit bir ilmiy tizimga solinib, tahlil etilmagan va tegishli ilmiy xulosalar asosida umumlashtirilmagan. Bronza davri shimoliy Baqtriya o'troq va chorvador qabilalarning dafn marosimlari va diniy e'tiqodi birgalikda, maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan. shimoliy Baqtriya aholisining dafn marosimlari va diniy e'tiqodi ustida izlanishlar olib borish, bronza davrida yashagan ajdodlarimizning diniy e'tiqodi bilan bog'liq urf-odatlari, udumlari va diniy mafkurasi qay darajada va qanday bo'lganligini chuqur ilmiy asosda, atroflicha o'rganish ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

I-BOB. SHIMOLIY BAQTRIYA BRONZA DAVRI YODGORLIKLARI

1.1. Qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari

Shimoliy Baqtriyaning keng va xilma xil geografik iqlim sharoiti, uning aholisi ishlab chiqarish xo‘jalik shakllarida o‘z aksini topgan va ko‘p hollarda ularning tarixiy rivojlanish yo‘llarini oldindan belgilab bergan. Shu bois, bronza davri yodgorliklari tog‘ oldi hududlari va tog‘lar oralig‘idagi vohalarida, daryo havzalarida joylashgan. Hududiy jihatdan ular shimoliy Baqtriya doirasida ikki qismga – Janubiy O‘zbekiston va Janubiy – g‘arbiy Tojikiston hududlariga bo‘linadi. Janubiy O‘zbekiston hududiy doirasida, uning tabiiy – geografik iqlim sharoitiga ko‘ra, mil.avv. II ming yillikda qator katta va kichik hajmdagi dehqonchilik vohalari shakllangan. U vohalarda hozirgi kunda bir nechta o‘troq dehqonchilik madaniyati yodgorliklari borligi aniqlangan va o‘rganilgan. Shimoliy Baqtriyaning Tojikiston qismida esa, asosan bronza davrining chorvador qabilalari yashagan hamda uning Janubiy O‘zbekistonga chegaradosh hududlarida bronza davrining so‘nggi bosqichlarida qadimgi dehqonchilik bilan shug‘ullangan qabilalar yashaganliklari haqida guvohlik beruvchi yodgorliklar ham topilgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Janubiy O‘zbekiston hududida bronza davriga oid bir necha qishloqlar va shaharmonand qishloq aholisining qabristonlari topib o‘rganilgan. Ular asosan Ko‘xitang va Boysun tog‘ining janubiy – sharqiy tog‘ oldi hududlariga va tog‘ oralig‘idagi vodiylarga joylashgan. Ularni akademik A.Asqarov, E.V.Rtveladze, professor A.Sagdullaev, t.f.d. sh.shaydullaevlar har biri yodgorliklarning hududiy joylashishiga ko‘ra, bir necha dehqonchilik vohalariga bo‘lib, o‘zlarining qarashlarini bayon etadilar.

Bizning fikrimizcha, qadimgi dehqonchilik vohalarini nomlash masalasida birinchidan, uzoq davrlar mobaynida tarixan tarkib topgan tabiiy – geografik toponim nomlari va u erlardan topib o‘rganilgan bronza davri yodgorliklaridan kelib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Janubiy O‘zbekiston hududida o‘rganilgan bronza davri yodgorliklari asosida uni ikkita yirik qadimgi dehqonchilik vohalariga va bitta tog‘ vodiysi kichik vohalariga ajratish mumkin. Bular: sherobod, Boysun

dehqonchilik vohalari hamda **Pashqurt tog' vodiysiga** bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, har bir bronza davrining yirik dehqonchilik vohasida daryo va ularning havza tarmoqlari asosida bir nechtdan kichik vohalar tarkib topgan. Yodgorliklarni rayonlashtirishda ularning geografik joylashish nomlaridan kelib chiqilgan. shuni alohida ta'kidlash joizki, bu ikkita yirik qadimgi dehqonchilik vohalari bir vaqtda shakllanmagan. Masalan, bronza davrining Sopolli madaniyati bosqichlari davomida tub ma'nodagi qadimgi dehqonchilik vohasi faqat sherobod va Pashqurt vodiylarida shakllangan. Boysun tog' oldi hududlarida esa, bronza davrida hali tub ma'nodagi qadimgi dehqonchilik vohasi shakllanib ulgurmagan edi. Chunki, bu hududlarga Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi davrida dehqon jamoalarining ayrim guruhlari kirib kelishi kuzatiladi. Boysun tog' oldi hududlarining qadimgi dehqonchilik vohasi sifatida shakllanishi so'nggi bronza (Sopolli madaniyatining Mo'lali va Bo'ston bosqichlari hamda bronzadan ilk temir asriga o'tish davrida, ya'ni Kuchuk I) davrida yuz beradi. Ammo, Pashqurt vodiysida tarkib topgan Tillabuloq yodgorligi arxeologik topilmalar tahliliga ko'ra, sherobod dehqonchilik vohasi bilan bir vaqtda tarkib topganligini ko'rsatmoqda

Mana shu mulohazalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Janubiy O'zbekiston hududlarida qadimgi dehqonchilik madaniyati ilk bor sherobod vohasida yuz beradi. sherobod dehqonchilik vohasi o'zining suv manbai imkoniyatiga ko'ra, ikkita kichik vohani tashkil etadi. Ulardan birinchisi Muzrabod kichik vohasidir. U Ko'xitangtog' daralaridan, Muzrabod mavzesi yaqinida sherobod dashtiga, undan Amudaryoga o'tadigan Ulanbuloqsoy suv manbai asosida tarkib topgan. Ulanbuloqsoyning quyi havzasida mahalliy aholi orasida Sopollitepa, Kultepa, Kichiktepa deb atalgan bronza davri ajdodlarimizning qishloqlari qad ko'targan bo'lib, ulardan ikkitasi (Kultepa va Kichiktepa) butunlay hamda Sopollitepa qal'a-qo'rg'oni tashqarisidagi turar-joy majmualarining ham ma'lum qismlari sherobod cho'lini o'zlashtirish vaqtida buzib tashlangan¹. Ulanbuloqsoyning o'rta oqimida so'nggi bronza va ilk temir davrining

¹ Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент, Фан. 1973. – С. 9-12.

Kuchuktepa, Pshaktepa, antik davrning shoʻrtepa, ilk oʻrta asrlar davriga tegishli Munchoqtepa kabi yodgorliklari joylashgan. Bular orasida eng qadimiysi Sopollitepa boʻlib, uning umumiy maydoni qalʼa-qoʻrgʻon va uning tashqarisida joylashgan turar-joy maskanlari bilan taxminan 3 gektarni tashkil etadi.

Sopollitepada olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida, u bronza davri dehqon jamoalarining noyob manzili sifatida shakllangan protoshahar ekanligi isbotlangan. Sopollitepada uchta qurilish davri aniqlangan. Davr oʻtishi bilan ushbu manzilda aholi koʻpayib, yangi erlarni oʻzlashtirish uchun Ulanbuloqsoy suv manbai kamlik qilganligi sababli, Sopollitepaning 3-qurilish bosqichida dehqon jamoalarining bir qismi yangi erlar qidirib, sherobod daryosining quyi havzalariga, Boʻstonsoyning yuqori oqimi yoqalariga borib oʻrnashganlar. Bu joyda olib borilgan arxeologik qidiruv ishlarida Boʻstonsoyning har ikkala sohillarida dehqon jamoalarining qishloqlari, ular yaqinida qator bronza davrining qabristonlari paydo boʻlganligi aniqlangan. Ular orasida yirik yodgorlik 100 gektardan kam boʻlmagan, Boʻstonsoy chap sohilini egallagan Jarqoʻton qishlogʻi boʻlib, tez orada bu qishloq tipidagi aholi turar-joyi bronza davrining ilk shahriga aylanadi.

Jarqoʻton ilk shahar maydonining janubida, shahar tashqarisida, maydoni 20 ga dan kam boʻlmagan Jarqoʻton shahar qabristoni tarkib topadi. Undan janubroqda, Boʻstonsoyning chap sohili boʻylab, yana uchta tabiiy tepaliklarda Jarqoʻton IV a, b, v qabristonlari paydo boʻladi. Yodgorlikning hududiy oʻzlashtirilishini oʻrganishga qaratilgan stratigrafik shurflar bu maskanda 500-600 yillar hayot davom etganligini koʻrsatadi. Boʻstonsoyning oʻng sohilidan yana bir necha qabriston va manzilgohlar topilib, ular Boʻston 1,2,3,4,5,6 nomlari ostida oʻrganilgan. Mana shu yodgorliklar majmuai Boʻstonsoy kichik vohasini tashkil etadi. Boʻstonsoyning quyi oqimida, qadimgi Zang kanali hududida, uning gʻarbiy oʻzani suv bazasida ilk temir, antik va ilk oʻrta asrlar davrining qator yodgorliklari roʻyxatga olinadi ¹. Ularning eng qadimiysi Talashkantepa boʻlib, u ilk temir davrining noyob qalʼa-qoʻrgʻonidir.

¹ Ртвеладзе Е.В. Разведочное изучение бактрийских памятников на юге Узбекистана // «Дреня Бактрия». – Ленинград, 1974. – С. 74-75.

Surxondaryo hududiy doirasida shakllangan ikkinchi yirik markaz – **Boysun qadimgi** dehqonchilik vohasidir. U yuqorida ta’kidlaganimizdek, sherobod dehqonchilik vodiysidan keyinroq, so’nggi bronza va ilk temir davrida shakllangan. Boysuntog‘ etaklarida, janubiy-g‘arbdan shimoliy-sharqqa tomon cho‘zilgan tog‘ oldi dashtlari qadimdan Bandixonsoy, Urgulsoy, Xo‘jaipak, Xalqajar, Sangardak, To‘palangdaryo suv manbai asosida sug‘orib kelingan. Ana shu daryo va tog‘ soylarining quyi havzalarida, ularning yoyilib ketgan tarmoqlari bo‘ylab so’nggi bronza davrida Boysun dehqonchilik vohasi shakllangan. Uning hududiy doirasida uchta qadimgi dehqonchilik kichik vohalari tashkil topgan. Ulardan birinchisi, Qiziriqdara dashtida joylashgan Bandixon kichik vohasidir. Bu kichik vohada bir-birlariga parallel Urgulsoy va Bandixonsoylar o‘tgan.

Bu maskanda akademik E.V.Rtveladze ilk bor izlanishlar olib borib, uch tarixiy davrlarga oid yodgorliklar majmuasini topgan¹. Ular asosan Urgulsoy bo‘ylab joylashgan. Ularning eng qadimiysi mahalliy aholi orasida Maydatepa nomi bilan yuritilgan yodgorlik bo‘lib, uning ostidan Kuchuk I davri qatlami uchratilgan. Uning ustki qatlami esa, qadimgi Baqtriya davri bilan xarakterlanadi. E.V.Rtveladze Maydatepani Bandixon I yodgorligi sifatida ro‘yxatga olgan.

Demak, **Bandixon kichik vohasi** ilk bor so’nggi bronza davridan boshlab, qadimgi dehqon jamoalari tomonidan o‘zlashtirila boshlangan. Yodgorliklar asosan, Urgulsoy bo‘ylab joylashgan bo‘lib, ular bir necha tarixiy davrlarni o‘z ichiga oladi. Bandixon kichik vohasining ilk bor o‘zlashtirilishi Kuchuk I davriga oid bo‘lib, yodgorliklarning asosiy qismi qadimgi Baqtriya – ilk temir davriga tegishlidir. Kichik vohada antik va ilk o‘rta asrlar davriga tegishli yodgorliklar ham uchraydi. Hozirgi vaqtda Bandixon vohasi kam suvli, chorva boqishga qulay imkoniyatlarga ega. Kichik vohaning gullashi ilk temir, antik va ilk o‘rta asrlar davriga to‘g‘ri keladi. Demak, ilk o‘rta asrlardan boshlab, Bandixon soyni suvi keskin kamayib ketgan bo‘lishi mumkin. Chunki, ushbu kichik vohada keyingi davrlar tarixiga oid yodgorliklar uchratilmaydi.

¹ Ртвеладзе Э.В. Разведки в предгорьях Байсунтау // «Археологические открытия 1973 года». – М.– Л., 1974 – С. 489-490.

Boysun qadimgi dehqonchilik vohasining markaziy qismini shoʻrchi tumani hududlari tashkil etadi. Bu sugʻorma dehqonchilik madaniyati markazi qadimda Boysuntogʻ daralaridan chiqqan Xoʻjaipak suv manbai asosida tashkil topgan. Xoʻjaipak daryosi oʻzining quyi havzalaridan keng tarmoqlarga boʻlinib ketgan Xalqajar, Qiziljar, Qizilsuv yoyilma oʻzanlari boʻylab tarkib topgan oʻnlab katta-kichik hajmdagi bronza va ilk temir davri jamoalarining manzilgohlari topib oʻrganilgan. Ana shunday yodgorliklar guruhi (Moʻlali manzili va qabristoni, Achamayli, Xotamtoy qabristoni, Mirshodi, Boʻyrachi 1, 2, Qiziljar, Qizilcha 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11) Mirshodi qishlogʻi atroflarida mujassamlashgan boʻlib, bu kichik vohada ilk bor oʻrganilgan Mirshodi qishlogʻi nomi bilan **Mirshodi kichik vohasi**, deb ataldi. Mirshodi kichik vohasining bosh yodgorligi Qizilsuv yoqasida joylashgan Qiziltepa¹ yodgorligi hisoblanadi. Bu yodgorliklardan Moʻlali qishloq makoni va qabristoni, Xotamtoy qabristoni hamda Achamayli manzili yodgorliklari Sopolli madaniyatiga tegishlidir.

Boysun qadimgi dehqonchilik vohasining uchinchi kichik vohasi **Sangardak-Toʻpalangsoy kichik vohasi** boʻlib, bu mintaqada bronza davri yodgorliklari kam uchratilgan. Kichik vohaning ikkita joyida bronza davri jamoalarining izlari saqlangan. Ulardan birinchisi Denov bekligining qalʼasi ostidan topilgan Moʻlali davri jamoalarining izlari boʻlsa², ikkinchisi Oltinsoy tumani hududidan topilgan Sopolli madaniyatining Moʻlali bosqichiga tegishli kenotaf mozordir. Bu kichik vohadan topilgan bronza davri jamoalarining dastlabki izlariga koʻra, Sangardak-Toʻpalang dehqonchilik kichik vohasi xali yaxlit bir sugʻorish hududi yoki kichik voha sifatida uzil-kesil shakllanib ulgurmagan. Kelajakda bronza davrining yangidan-yangi yodgorliklarini topilishiga umid bogʻlagan holda, uni alohida qadimgi dehqonchilik kichik vohasi turkumiga kiritish mumkin.

Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida Sopolli madaniyati jamoalarining bir guruhi Jarqoʻton bosqichida sherobod vohasidan gʻarbda joylashgan Koʻxitang togʻ oraligʻidagi Pashqurt vodiysiga ham kirib

¹ Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. – Ташкент, Фан, 1987. – С. 7-11.

² Ртвеладзе Э.В. К характеристике памятников Сурхандарьинской области ахеменидского времени // СА. – № 2. – М., 1975. – С. 265.

borganligi aniqlandi. Qadimgi dehqon jamoalarining dastlabki manzilgohi Tillabuloq atrofi ochiq, harbiy strategiya jihatidan qulay, baland tabiiy tepalik maydonida qad ko'targan. Tepalik atrofi Tillabuloq suvi oqimi yo'nalishida hosil bo'lgan soy o'zani havzasi bo'ylab ekinbop tekisliklardan iborat. Demak, qadimgi tillabuloqliklar shu joylarda dehqonchilik qilgan bo'lishlari mumkin. Hozirda Pashqurt vodiysidagi qadimgi dehqon jamoalarining Tillabuloq qishloq makonidan tashqari yana 10 ga yaqin joylarda bronza davri manzillari sh.shaydullaev tomonidan aniqlandi. Pashqurt tog' vodiysining tabiiy-geografik sharoiti vodiya nafaqat sug'orma dehqonchilik jamoalarining, balki lalmikor dehqonchilik va yaylov chorvachilik xo'jaliklarini rivojlanishi uchun ham qulay imkoniyatlarga ega. Uning Zarautkamar qoyatosh suratlari yodgorliklarini ham hisobga olganda, uni Janubiy O'zbekistonning uzoq tarixiy ildizga ega Pashqurt lalmikor dehqonchilik va yaylov chorvachilik xo'jaligi jamoalarining tog' orasida tashkil topgan vohasi sifatida o'rganish mumkin.

Shimoliy Baqtriya hududlaridan o'rganilgan bronza davri qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari, ularga xos xususiyatlarga ko'ra, ikki guruhga bo'linadi. Birinchisi, Sopolli madaniyati tipidagi yodgorliklar, ikkinchisi Kuchuk 1, Qizil 1, ya'ni CHust madaniyati tipidagi yodgorliklardir. Ularning tarixiy va antropologik kelib chiqish ildizlari bir bo'lsada, ammo xronologik jihatdan turli davrlarga tegishlidir. Ularning etnomadaniy rivojlanish darajasi, antropologik qiyofasi, davriy sanalari va moddiy madaniyatining o'ziga xos jihatlari keng ko'lamda o'rganilgan. Ayniqsa, Sopolli madaniyatining xronologik izchillik asosida taklif etilgan bosqichlarining davriy ketma-ketmaligi birlamchi manbalar asosida tuzilgan. shu bois, ushbu bobda keyingi izlanishlar tufayli paydo bo'lgan ba'zi bir muammolar va ularning davriy sanalari bilan bog'liq yangicha qarashlarni tahlil etish, umumlashtirish va o'z qarashlarimizni bayon etish ko'zda tutilgan. Chunki, shimoliy Baqtriya yodgorliklarining mavjud xronologiyasi bilan bog'liq ba'zi bir qarashlarga aniqliklar kiritish bronza davri dafn marosimlarini o'rganishda tarixiy izchillikni ta'minlaydi.

Sopolli madaniyati va uning xronologiyasini dastlab, A.Asqarov uch xronologik bosqichga, ya'ni Sopollitepa, Jarqo'ton va Mo'lali bosqichlariga bo'linishini asosladi¹. Ularning sanalarini (Sopolli bosqichi:1700-1500 yy, Jarqo'ton bosqichi: 1500-1350 yy, Mo'lali bosqichi:1350-1000 yy) aniqladi. Undan so'ng, arxeolog B.Abdullaev Jarqo'ton IVa qabristonining maydonida qazishmalar olib borib, 731 ta qabr topilmalari asosida Sopolli madaniyati davriy sanasiga Ko'zali bosqichi kiritilishini taklif qildi². Uning yil sanasi mil. avv. 1350-1200 yillar bilan belgilandi. U.Raxmanov Jarqo'tonda kulolchilik bilan bog'liq muammolar ustida izlanishlar olib borib, yodgorlikning vertikal va gorizontal stratigrafiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Jarqo'ton yodgorligi hududlarini o'zlashtirilishining tarixiy va xronologik ketma-ketligini o'rganib, Sopolli madaniyati uchun yakunlovchi Bo'ston bosqichini taklif qiladi³. Mo'lali bosqichining yil sanasi mil. avv. 1200-1050 yillar bilan, Bo'ston bosqichi esa mil.avv. 1050-900 yillar bilan belgilanadi.

Sopolli madaniyati va uning bosqichlarga bo'linishi yuzasidan akademik A.Asqarov va uning shogirdlari tomonidan taklif etilgan davriy ketma-ketlik ilmiy jamoatchilik orasida qabul qilinib, uzoq yillar ilmiy muomalada bo'lib keldi. Biroq, keyingi yillarda Jarqo'ton yodgorligi va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish xalqaro ahamiyat kasb etib, Germaniya olimlari e'tiborini o'ziga tortmoqda. Germaniyalik arxeolog D.Xuff o'zbek arxeologlari (sh.shaydullaev, T.shirinov va boshqalar) bilan ijodiy hamkorlikda Jarqo'tondagi arxeologik izlanishlarda qatnashib, ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritdi. D. Xuff asosiy e'tiborni Jarqo'ton ibodatxonasi ostida saqlangan qal'a-qo'rg'onni o'rganishga qaratadi. Darhaqiqat, Jarqo'ton monumental ibodatxonasi o'rnida dastlab, qala-qo'rg'on bo'lib, tashqi devor parametri bo'yicha aylana shaklida burjlar bo'lganligi, qal'aning ichki tuzilishi keng to'g'ri burchakli bir necha xonalardan tashkil topganligini aniqlaydilar.

¹ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура ... – С. 90-112; Аскарлов А., Абдуллаев Б. Раскопки могильника Джаркутан (Результаты работ весной 1975 г.) // ИМКУ – Вып.14, –Ташкент, 1978. – С. 39-42.

² Аскарлов А., Абдуллаев Б. Джаркутан. –Ташкент, 1983. – С. 40-42.

³ Рахманов У. Керамическое производство эпохи бронзы Южного Узбекистана. – Самарканд, 1987. – С.12-14.

Keyingi yillarda Jarqo‘tondan topilgan noyob ahamiyatga ega bo‘lgan topilmalar, madaniy qatlamlar hajmi hamda S-14 analizlariga asoslanib, Sopolli madaniyati va uning bosqichlari xronologiyasini 350-400 yilgacha qadimiylashtirdilar, ya’ni Sopolli bosqichi sanasini mil. avv. 2150-1900 yillarga, so‘nggi Bo‘ston bosqichini esa, 1400-1300 yillar bilan belgilandi¹.

Madaniyatlarni qadimiylashtirish g‘oyasi asosida O‘rta Osiyo yodgorliklaridan olingan radiokarbon analiz natijalari hamda ashyoviy dalillarning qadimgi sharq yodgorliklari topilmalari bilan qiyosiy taqqoslash yotadi. shuningdek, ular o‘z vaqtida Sopollitepa va Jarqo‘tondan olingan radiokarbon sanalarni-(mil. avv. 1690 va 1560 yillar) S-14 metodining takomillashgan (kalibrlashtirilgan) sanalariga asoslanib, Sopollitepa bosqichini F.Koll mil. avv. 2190-1880 yillargacha, Xibert esa mil. avv. 2277-1745 yillargacha qadimiylashtirganlar Nemis olimi D.Xuff Berlin laboratoriyalarida Jarqo‘tondan olingan 23 ta ko‘mir va kul qoldiqlarini kalibrlashgan radiokarbon analizdan o‘tkazib, ulardan Jarqo‘ton bosqichiga oid qatlamlar (15ta analiz) mil. avv. 1950-1600 yillarni bergan. Amerikada F.Xibert tomonidan o‘tkazilgan kalibrlashgan analizlar esa, mil. avv. 1950-1750 yillarni bergan².

Yuqorida keltirilgan radiokarbon analiz natijalari arxeologik majmualarning qiyosiy tipologik analizlariga nisbatan bir muncha zid. shu bilan birga, A.Asqarov va sh. shaydullaevlarning keng qiyosiy tahlillari asosida taklif etgan Sopolli madaniyati va uning bosqichlari sanalari haqidagi mulohazalari tarixiy haqiqatga yaqinroqdir. Demak, yodgorliklar xronologiyasidagi tarixiy jarayonlarning kechishi va bu jarayonlarni davriy ketma-ketlikda mantiqan rivojlanish tendensiyasini hisobga olganda, Sopolli madaniyatining Sopollitepa bosqichi davriy sanasi Nomozgoh VI davri xronologiyasi doirasidan chiqmaydi. shu sababli, Sopolli madaniyati va bosqichlarini yangi aniq sanalari baxslidir. Buning ustiga, na Sopollitepa, na Jarqo‘tonda Nomozgoh V davri sopollari uchramagan. O‘rta Osiyo

¹ Асқаров А., Шайдуллаев Ш. Бактриянинг бронза ва илк темир даври маданиятлари хронологияси // “Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда”. – Тошкент, 2005. – Б. 36-47.

² Асқаров А., Шайдуллаев Ш. Бактриянинг бронза ва илк темир даври..... – Б. 39.

qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklarining davriy sanalari masalasida an'anaviy qarashlar asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Nomozgoh-YAz1, Sopolli-Kuchuk1, Dashli-Tilla1 madaniyatlari o'rtasidagi davomiylikni Jarqo'ton yodgorligi misolida o'rganish mumkinligini ta'kidlash joiz. Ammo, Jarqo'ton yodgorligi ustki qismida uchragan Kuchuk 1 qatlami qalinyupqaligiga qaraganda, Kuchuk 1 davriga 300 yil berish shubhalidir. Chust madaniyati o'z vatani Farg'ona vodiysida 300-500 yilgacha bo'lgan davrni qamrab olgan bo'lishi mumkin. Ammo, Qadimgi Baqtriyaga, Marg'iyonaga chustliklar mil.avv. 1000 yoki uzog'i bilan 1100 yildan oldin kirib kelgan emas. Chunki, Bo'ston-Kuchuk II o'rtasida davomiylik uzilmagan. Kuchuk 1 davri etnik guruhlarining kirib kelishi bilan harbiy-siyosiy ziddiyatlar tufayli Sopolli shahar madaniyati an'analari ma'lum vaqtga inqirozga uchraydi. shuning uchun ham Kuchuk I davri sanasini mil. avv. 1300-1000 yillar bilan belgilash shubhalidir. Bizningcha, Qadimgi Baqtriyada Kuchuk I davri sanasini mil. avv. 1000-900 yillar bilan, Sopolli madaniyati sanasini esa mil. avv. 2000-1100 yillar bilan belgilash to'g'riroq bo'ladi

O'zbek-Olmon Baqtriya arxeologik ekspeditsiyasining yosh a'zolari Mayk Toyfer va Kay Kanyutlar Sopolli madaniyatining davriy ketma-ketligi xususida o'z qarashlari bilan yangilik kiritmoqchi bo'lganlar. Ular Sopolli madaniyatining 5 bosqichga bo'linishini tan olgan holda, Jarqo'ton bosqichidan keyin Ko'zali emas, balki Mo'lali bosqichi keladi, deb ta'kidlaydilar. Bo'ston 6 va 7 ob'ektlarida uzoq yillar davomida dala tadqiqotlari olib borayotgan professor N.A.Avanesova ularning xulosalarini asossiz ekanligini ko'rsatib, ilmiy maqolalar orqali e'lon qildi.¹.

Qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab janubiy Tojikiston hududlaridan ham topila boshladi. Masalan, Sopolli madaniyatiga tegishli 2 ta qabriston Nurek GES hududida, Xisor vodiysida

¹ Аванесова Н.А. Проблема относительной хронологии и периодизации Сапаллинской культуры // Археология Узбекистана, – № 1. – Ташкент, 2010. – С. 110-143.

Tandiryo‘l va Zarkamar qabristonlari, Daxana va Teguzak¹ makonlari, Tairsuv daryosi havzasida Kangurtut qabristoni va makoni hamda Baraki-Kurug makoni² va nihoyat yana bir yodgorlik-Xo‘ja G‘oyib³, Kulob vodiysidan o‘rganilgan. Ulardan topilgan arxeologik majmualar, birinchi navbatda, kulolchilik mahsulotlari Sopolli madaniyatining Mo‘lali bosqichi topilmalariga o‘xshashligi bilan xarakterlanadi. Demak, Janubiy-g‘arbiy Tojikiston hududlaridan o‘rganilgan qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari Sopolli madaniyatining Mo‘lali bosqichi sanasi bilan, ya’ni mil. avv. 1300-1200 yillar bilan belgilash mumkin.

1.2. CHorvador qabilalar madaniyati yodgorliklari

Tojikiston hududlari shimoliy Baqtriyaning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning hududlari qadimda ko‘proq chorvachilik xo‘jaligining rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarga ega bo‘lsada ammo Sopolli madaniyatining Mo‘lali bosqichidan boshlab, qadimgi dehqon jamoalarining ayrim guruhlarlari Hisor vodiysiga ham kirib boradilar. Bunga dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaliklarini birgalikda olib borish uchun qulay joy hisoblangan tog‘ oldi hududlari tanlangan. Bu mintaqalarda yomg‘ir tez-tez yog‘ib turishi sababli, bu hudud lalmikor dehqonchilik va yaylov chorvachiligi uchun qulay joylar hisoblangan. Sug‘orma dehqonchilik uchun ham soy havzalarida keng imkoniyatlar mavjud bo‘lgan.

Janubiy-g‘arbiy Tojikiston hududlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko‘ra, dehqonchilik madaniyati yodgorliklarini uch kichik vohaga bo‘lib o‘rganish mumkinligi aniqlangan. Birinchisi – Hisor qadimgi dehqonchilik kichik vohasi, ikkinchisi – Vaxsh daryosi yuqori oqimi soy havzalarida tashkil topgan Teguzak kichik vohasi, uchinchisi – Qizilsuv soyi quyi oqimining sharqiy irmoqlari havzasida tashkil topgan Parxar-Kulob kichik vohasidir⁴.

¹ Пьянкова Л.Т. О раскопках на поселении бронзового века Тегузак в 1980 году // АРТ. – Вып. XX. (1980). — Душанбе, 1987. – С. 117-125.

² Виноградова Н.М. Новые памятники эпохи бронзы на территории Южного Таджикистана // Центральная Азия. Новые памятники письменности и искусства. – М., 1987. – С. 76-91;

³ Виноградова Н.М., Гётцельт, Пьянкова Л.Т. Археологическая разведка в бассейне реки Кызылсу (Южный Таджикистан) // РА, М., 2003. – С. 103.

⁴ Виноградова Н.М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 13.

Bu uchala kichik vohalarda keyingi 25-30 yil ichida Sopolli madaniyatining soʻnggi bosqichlariga tegishli qator dehqonchilik qishloq-makonlari va qadimgi qabristonlar topib oʻrganildiki, ular orasida Kangurtut, Daxana, Teguzak qishloq-makonlari va Tandiryoʻl, Kangurtut, Nurek qabristonlari alohida diqqatga sazovor yodgorliklardir. Bu yodgorliklar orqali Janubiy Tojikistonda qadimgi dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlarini soʻnggi bronza davri bilan bogʻlash imkonini beradi.

Janubiy Tojikistondan **Hisor** vodiysining ikki joyida dehqonchilik bilan shugʻullangan ajdodlarimizning qadimgi qabristonlari oʻrganilgan. Ular Tandiryoʻl va Zarkamar qabristonlari boʻlib, bu arxeologik obʼektlar haqida N.M. Vinogradova asarlarida toʻliq maʼlumot berilgan¹. Bronza davri yolgʻiz qabri kushonlar davrining Tupxona va Qora pichoq mavzeida ham uchratilgan. Sopolli madaniyati jamoalarining izlari esa Hisor qalʼasining ostidan topilgan. Moʻlali va Boʻston yodgorliklarining ayrim idishlari va mis boltalari qishloq xoʻjaligi ekinlarini ekish, parvarish qilish vaqtlarida Dushanbe shahri atroflaridagi sharshara, Arakchin, Ramit mavzalarida uchratilgan. Janubiy Tojikiston hududlaridan topib oʻrganilgan bronza davri yodgorliklari va boshqa topilmalar orasida eng qadimiysi mis boltalar boʻlib, mutaxassislar ularni Nomozgoh V davriga tegishli ekanligini taʼkidlaydilar. Qolgan yodgorliklarning deyarli hammasi Sopolli madaniyatining Moʻlali-Boʻston bosqichlariga tegishli ekanligi aniqlangan.

Vaxsh daryosining yuqori oqimidagi **Teguzak kichik vohasida** qadimgi dehqonchilik madaniyatiga tegishli Kangurtut, Daxana, Teguzak, Baraki Kurug va Nurek kabi yodgorliklar oʻrganilgan. Kangurtut manzilgohi va qabristoni Dangara tumanining togʻli vodiysida, Kangurtut qishlogʻi yaqinidan topilgan. Ushbu yodgorliklar Tairsuv daryosiga kelib qoʻshiladigan Kangurtut va Dugoboz soylari oraligʻidagi sugʻorishga qulay adirlik joylarni egallagan. Ularning shimoliy tomonida, Tairsuv daryosi irmoqlarining yuqori havzalarida Nurek qabristoni, Teguzak va Daxana manzilgohlari joylashgan. Ularda olib borilgan arxeologik

¹ Виноградова Н.М. Могильник Тандыр-йул в Южном Таджикистане. МАИКЦА, – Вып. 18, – Москва, 1991. –С. 68.; Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 13-22.

izlanishlar natijasida bu kichik voha yodgorliklarida Sopolli madaniyatining Mo‘lali bosqichi materiallari bilan Andronova hamda Bishkent-Vaxsh madaniyati topilmalari birgalikda uchrashi kuzatiladi.

Uchinchi qadimgi dehqonchilik vohasi Qizilsuv soyining Ko‘kchadaryoga yaqin sharqiy irmoqlari havzasida tashkil topgan **Parxar-Kulob kichik vohasidir**. Bu kichik vohaning bir necha joylarida qadimgi dehqonchilik jamoalarining moddiy madaniyat izlari saqlanib qolgan. Aslida Qizilsuv daryosi YAxsv va Tairsuv soylari asosida tarkib topgan bo‘lib, uning YAxsv tarmog‘i havzasida baland-past tepaliklardan iborat Parxar-Kulob tekisligi hosil bo‘lgan. Aynan ana shu joyda ushbu kichik mintaqaning ikkita dehqon jamoalariga tegishli qabristoni joylashgan. Hozirgi kunda har ikkala qabriston maydonini, bugungi kundagi qabristonlar egallagan. Ba‘zan yangi qabrlarni qazish vaqtida bronza davriga tegishli qabrlar ham uchratiladi. Afsuski, bu joylarda rejali arxeologik qazishmalar o‘tkazish man etilgan. Bir qadimgi qabr Xo‘ja G‘oyib Kulobiy qabristonidan, yana biri Parxar shahri yaqinidagi O‘rtaboz tepaligidan topilgan. Bu qadimgi qabriston, hozirgi zamon qabrlarini qazish vaqtida buzib tashlangan. Ammo, vayron etilgan qabrlardan topilgan sopol idishlar aynan Sopolli madaniyatining Mo‘lali bosqichi bilan xarakterlanadi. Buzilgan qabrlardan yana Andronova qabilalari madaniyatiga tegishli bronza bilakuzuklar ham topilgan.

Kulob va Parxar o‘lkashunoslik muzeylari eksponatlari orasida bronza davrining tosh giralari*, bazalt toshidan ishlangan shon (sapojnaya kolodka) topilgan¹. Ular mahalliy aholi tomonidan o‘z tomorqalarida erga ishlov berish vaqtida topilib, muzey eksponatlari orasidan joy olgan. Ular ham ushbu kichik vohaning bronza davri tarixidan guvohlik beradi.

Dehqon jamoalarining yana ikkita qabri shaartuz tumanining Qizil qal’a shahri yaqinidan topilgan. Qabrda ikkita skelet yotgan bo‘lib, ular juda boy ashyoviy dalillar bilan dafn etilgan. Qabrda ikkita sopol idish, 800 dan ortiq bronza, qimmatbaho toshlar, kumush, hatto oltin munchoq va bezaklar topilgan. Ikkinchi qabrda ikkita sopol idish va bronzadan ishlangan pichoq uchratilgan. Bu

¹ Виноградова Н.М. Юго-Западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004. – С. 63-64.

erdan topilgan sopol buyumlar qabrlarni Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichiga tegishli ekanligini tasdiqlaydi. Bu topilmalar Janubiy Tojikiston hududida to'rtinchi **shaartuz kichik vohasi** shakllana boshlaganligidan guvohlik beradi.

Ta'kidlash joizki, Janubiy Tojikiston hududlarida uchratilgan qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklarining birontasida na Sopollitepa, na Jarqo'ton va na Tillabuloq yodgorliklaridagi monumental asos ko'zga tashlanmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, Janubiy Tojikiston hududi sherobod vohasi kabi qadimgi urbanizatsiya o'choqlarini shakllanishi darajasiga etib bormagan. Fundamental asosdagi o'troq dehqonchilik madaniyati markazlarini tashkil topishi ilk temir ya'ni Qadimgi Baqtriya davlat tizimlari shakllangan davrda yuz beradi.

shimoliy Baqtriyaning Tojikiston qismi bronza davrida tog' vodiylari, katta va kichik daryo va soylar hosil qilgan o'tloq adir va jilg'alar mintaqada yaylov chorvachilik xo'jaligining rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochgan. shu bois bo'lsa kerak, nafaqat mintaqaning qadimgi mahalliy qabilalari, hatto miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmida sherobod va Boysun qadimgi dehqonchilik vohalaridan bu mintaqaga kirib kelgan dehqon jamoalari ham tabiiy-geografik sharoit va ekologik imkoniyatlar darajasidan kelib chiqib, chorvachilikni rivojlantirishga ko'proq urg'u berganlar.

Ana shunday urug' jamoalarining turkum yodgorliklari Kofirnigon va Vaxsh daryolari quyi oqimlari adirlarida, Amudaryoga yaqin hududlarda keng tarqalgan. Ular Vaxsh 1,2,3, Tigrovaya Balka, Oyko'l, Jarko'l, Ilk Tulxor, Ilk Aruktau, Bishkent I, II, III va Isanboy kabi yodgorliklari bo'lib, ular turli xil ichki va tashqi qurilish ko'rinishidagi qadimgi qabristonlar sifatida bizgacha etib kelgan. CHorvadorlarning bir qabristoni Makoni-mor Qizilsuv daryosining Amudaryoga qo'shilish yaqinidagi dashtga joylashgan. Kofirnigon daryosining quyi havzasi dashtlaridan topilgan Aruktau, Tulxor, Bishkent yodgorliklarining tadqiqotchisi A.M.Mandelshtam ularni Bishkent madaniyati nomi ostida o'rgangan. Aynan shu tipdagi Vaxsh vodiysi yodgorliklarini o'rgangan B.A.Litvinskiy esa, ularni Vaxsh madaniyati nomi bilan fanga kiritgan.

Janubiy-gʻarbiy Tojikistonning bronza davri yodgorliklari kelib chiqish tarixiy ildizlariga koʻra, uchta etnik guruhlariga borib taqaladi. Bular:

- chorvador Bishkent va Vaxsh madaniyati etnik guruhlar;
- qadimgi dehqonchilik madaniyati etnik guruhlar;
- Evroosiyo dashtlarining andronova madaniyati etnik guruhlar.

Demak, janubiy-gʻarbiy Tojikiston hududlari soʻnggi bronza davrida turli etnik guruhlarining oʻzaro iqtisodiy va siyosiy hamda etnomadaniy aloqalar markazi boʻlgan.

Bronza davrining tasodifiy topilgan yana bir ashyosi – bu dastasiga qadama naqsh berilgan hanjar boʻlib, uning yil sanasi ham (mil. avv. II-ming yillikning oxiri) belgilanadi¹. Xisor vohasining antik davriga tegishli Tupxona qabristonidan skeletning qoʻl-oyoqlari bukilgan va yonboshlatilgan holatda koʻmilgan ikkita bronza davriga oid qabr ochilgan. Ulardan birida qoʻy suyaklari va asosi chaqmoqtoshdan ishlangan nukleus uchratilgan. B.A.Litvinskiy mana shu nukleusga asoslanib, bu ikkala bronza davri qabrlarini ilk bronza davri bilan belgilaydi². Aslida u erdan topilgan sopol parchalari Moʻlali bosqichi sopollari bilan xarakterlanadi. Bu tasodifiy topilmalar Janubiy-gʻarbiy Tojikiston hududlari bronza davri jamoalari tomonidan keng koʻlamda oʻzlashtirilganligi haqida ishora beradi. Ammo bu hududni arxeologik jihatdan oʻrganish ishlari 1955 yildan Bishkent vodiysida A.M.Mandelshtam izlanishlaridan keyin boshlanadi.

1955-1959 yillarda A.M.Mandelshtam Kofirnigon daryosi quyi havzalarida antik davr mozor-qoʻrgʻonlarini oʻrganish vaqtida bronza davriga tegishli qabrlarga duch keladi. Ular ikki guruhdan iborat boʻlib, tadqiqotchi birinchisini – “Ilk Tulxor” (75 ta mozor) va ikkinchisini – “Ilk Aruktau” (12 ta mozor-qoʻrgʻon) yodgorliklari deb ataydi. Bu yodgorliklar Janubiy Tojikiston hududlarida keng koʻlamda oʻrganilgan obʼektlar boʻlib, tadqiqotchi tomonidan qabrlarning ichki tuzilishiga koʻra, 4 xil turi aniqlangan. Ular orasida Ilk Tulxor obʼektining 57 tasida qabrga qoʻyilgan buyumlarining tarkibi va qabr tuzilishi jihatidan bir xil,

¹ Кузьмина Е.Е. Металлические изделия ... – С. 52-53.

² Литвинский Б.А. О топорах эпохи бронзы ... – С. 62.

ya'ni qabrlar ayvonidan lahadga bir pillapoya orqali (yama so spuskom) kirilgan. Bunday tuzilish va ashyoviy tarkib jihatidan bir xil mozorlar tadqiqotchi tomonidan Janubiy Tojikiston bronza davri chorvadorlarining Bishkent madaniyati, deb ataladi. Ularning davriy sanasi esa mil. avv. XIII-IX asrlar bilan belgilandi¹.

Afsuski, na tadqiqotchi, na uning izdoshlari Bishkent madaniyati qabilalarining tarixiy kelib chiqish ildizlarini mahalliy qabilalar bilan bog'lamaydi. Aksincha, A.M.Mandelshtamning farazlariga ko'ra, Bishkent madaniyati jamoalari Baqtriyadan shimolroqda Zamonbobo va Andronova jamoalari chorvador qabilalarning bu zaminga kirib kelishi bilan bog'laydi. shuningdek, Bishkent arxeologik majmualarida uchraydigan dehqon jamoalariga xos topilmalarning uchrashi, bu ikki madaniyat jamoalari o'rtasida bo'lib turadigan iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar tahlili bilan izohlaydi. A.M.Mandelshtamning bunday xulosaga kelishida Buxoro vohasining Zamonbobo madaniyati qabrlari tuzilishidagi o'xshashlik va uning sopol majmuasida uchraydigan sharsimon (korpusli) tuzilishdagi xurmachalar asos bo'lgan. Biroq, xali Sopolli madaniyatining Mo'lali va Bo'ston bosqichlari haqida, ularning arxeologik majmualari to'g'risida ilmiy adabiyotlarda tegishli ma'lumotlar mavjud emas edi. Sopolli madaniyati va uning bosqichlarini keng ko'lamda o'rganilishi natijasida A.M.Mandelshtam tomonidan bildirilgan faraz haqiqatdan uzoqroq ekanligi isbotlandi. Bu muammo, keyinroq, Janubiy-g'arbiy Tojikistonning Vaxsh va Qizilsuv daryolari quyi havzalarida B.A.Litvinskiy tomonidan Vaxsh madaniyati yodgorliklari ochib o'rganilgach, o'z ilmiy echimini topdi. U o'z qarashlarida, ularning kelib chiqish tarixiy ildizlarini Janubiy Turkmaniston bronza davri dehqon jamoalari bilan bog'laydi. Bir guruh dehqonchilik madaniyati jamoalari shimoliy Afgoniston orqali Vaxsh va Qizilsuv daryolari havzalariga kirib kelganlar. Bu zaminning tabiiy-geografik sharoiti va ekologik imkoniyatlari Nomozgoh dehqon jamoalarini yangi sharoitga moslashib, chorvachilik xo'jaligini yuritishga majbur bo'lganliklarini asoslashga qaratadi. Sopolli va Bishkent-Vaxsh madaniyatlari

¹ Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. ... – С. 78-92.

orasida uzviy genetik aloqa borligi masalasida akademik A.Asqarov ham o'zining aniq qarashlarini bayon etgan¹.

Ularning izidan borgan tadqiqotchilar L.T.Pyankova va N.M.Vinogradovlar u tadqiqotchilarning qarashlari asosida qandaydir tarixiy haqiqat borligini e'tirof etgan holda, Bishkent va Vaxsh madaniyatlarining kelib chiqish tarixiy ildizlari va ularning yangi sharoitdagi rivojlanish yo'nalishlarini hisobga olib, Janubiy-G'arbiy Tojikiston hududining qadimgi chorvador qabilalar madaniyatlarini birlashtirib, Bishkent-Vaxsh madaniyati², deb atashni taklif qiladilar.

Lekin, na B.A.Litvinskiy, na A.M.Mandelshtam va ularning izdoshlari Bishkent va Vaxsh madaniyatining shakllanishida mahalliy Hisor madaniyati jamoalarining ishtiroki haqida fikr bildirmaydilar. A.Asqarov bu masalada o'z qarashlarini bayon etib, Ilk Tulxor yodgorligining antropologiyasi andronovaliklarnikiga, ya'ni protoevropoidlar va o'rta er dengizi tiplaridan tubdan farq qilib Bishkent-Vaxsh madaniyatining shakllanishida mahalliy Hisor jamoalari ham qatnashgan, degan xulosaga keladi³. Bu fikr zaminida qandaydir tarixiy haqiqat borligi ishonarlidir.

¹ Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент, Фан. 1973. – С. 128; Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. –Т., Фан. 1977, – С. 115.

² Пьянкова Л.Т. Древние скотоводы Бактрии (о вахшской и бишкентской культурах) // Культура первобытной эпохи Таджикистана (от мезолита до бронзы). Тез.док. – Душанбе, «Дониш». 1982. – С. 41-65.

³ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы ... – С. 115.

II-BOB. BRONZA DAVRI JAMOALARINING DAFN MAROSIMLARI

II-1. O'troq dehqonchilik madaniyati jamoalarida dafn marosimlari

O'lkamizda islom dinidan oldin amalda bo'lgan otashparastlik va zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchi ajdodlarimizning o'ziga xos dafn marosimlari kishi e'tiborini jalb etadi. Dafn marosimlari misolida o'sha davr odamlarining umumiy yashash sharoiti, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va diniy mafkurasi qanday bo'lganligini ko'rish mumkin. Jamiyatdagi turli guruhlarining qarashlari va qayg'u-alamlari ularning qabrlarida namoyon bo'lgan diniy marosimlari orqali ifodalanadi.

Sopollitepa manzilgohida olib borilgan qazuv ishlari natijasida ushbu yodgorlik shimoliy Afg'onistonning Dashtli, Marg'iyonaning Gonur yodgorliklari bilan o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy va etnik aloqalar bo'lganligi aniqlandi¹.

Bronza davridan e'tiboran zardushtiylik dini chorvadorlar orasida ildiz otib, quyosh eng muqaddas, oliy ibtido sifatida qadrlangan. Bu davr aholisi tog' tepalarida, ko'l bo'ylarida, quyosh yaxshi ko'rinadigan joylarda quyoshga sig'inib, yaylovga boy erni so'rashgan². Bronza davrida vujudga kelgan o'troq dehqonchilik vohalari aholisining diniy qarashlari dastlabki davrda dasht aholisi diniy qarashlari bilan ko'p jihatdan o'xshash bo'lsada, o'troq aholining keyingi tarixiy taraqqiyotida cho'l aholisidan keskin farq qila boshlaydi, din jamiyatni boshqarishning ustuvor omiliga aylanadi. Tabiiyki o'troq dehqon hayotida er, suv, havo, olov (quyosh) muhim o'ringa ega. Tabiat unsurlariga e'tiqod qilish dehqonlar jamoasida tobora uyg'unlashib, aniq tizimga kirib boradi³.

Sopolli madaniyati aholisining dafn marosimlari va diniy e'tiqodi madaniyatning barcha bosqichlarida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, bu madaniyatning Sopolli va Jarqo'ton bosqichlari dafn marosimlarini kuzatar ekanmiz, ular o'rtasida bir-biri bilan uzviy bog'liq, shu bilan birga, ularni bir-biridan ajratib turuvchi o'ziga xos jihatlar ham ko'zga tashlanadi.

¹ Асқаров А. Сапаллитепа. ... – С. 23.

² Эсанов М. Авесто жамиятининг археологик материалларда акс этиши. (Қадимги Бактрия ва Марғиёнанинг бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида) // т.ф.н. диссер. Т.: 2007, – Б. 63.

³ Эсанов М. Авесто жамиятининг археологик материалларда акс этиши. – Б. 60.

Sopollitepada olib borilgan qazish ishlari natijasida 138 ta qabr ochib o'rganilgan¹. Bu qabrlarda turli yoshlardagi 158 ta jasad ko'milgan². Qabrlar turar-joy doirasida, yashash uylarining poli, ostonasi, devori osti, oshxona poli ostida joylashgan. Bu holat, ya'ni marhumning turar-joy maskanlari doirasida dafn etilishi, o'sha davr odamlari tasuvvurida olamdan o'tgan yaqinlarini oila, jamoa bilan birga bo'lishlarini aks ettirgan. Shu bois Sopolli madaniyatining ilk bosqichlarida marhumlarni turar-joy doirasidan uzoqroq joyga olib borib ko'mish urf-odatlarini bo'lmagan. Sopollitepa qabrlarida marhumlar asosan yakka holatda, ba'zan juft holatda ko'milgan. U erda ochilgan qabrlarning 13 tasi juft, 12 tasi kenotaf qabrlardir. Shulardan 6 tasida odam o'rnida hayvon skeletlari, qolgan 6 tasida qabr bo'sh holatda ekanligi aniqlangan.

Qabrlarning tuzilishi asosan ayvonli lahad shaklida. Qabrlar ayvoni odatda to'g'rito'rtburchak shaklida o'ra qazilgan bo'lib, uning chuqurligi 60 sm dan 1 metr gacha bo'lgan. Qabr ayvonining g'arbiy devori ostidan lahadga teshik ochilgan. Shu teshik orqali oval shaklida lahad qazilgan. Lahadning chuqurligi ayvonga nisbatan 40-60 sm gacha chuqurroq qazilgan. Lahad teshigi tuxumsimon-oval shaklida, ba'zan to'g'rito'rtburchak shaklida bo'lib, yaxshi saqlangan qabrlarda lahad teshigi xom g'isht bilan berkitilganligini ko'rish mumkin. Lahadning shimoliy-g'arbiy burchagi to'risiga marhum jinsiga qarab o'ng yoki chap yonboshi bilan boshi shimolga qaratib qo'yilgan. Bo'sh qolgan sharqiy va janubiy-sharqiy qismiga mozorga qo'yilishi lozim bo'lgan buyumlar joylashtirib chiqilgan. Shaxsiy buyumlar asosan skelet yaqinida joylashgan. Lahad og'zi teshigi yuqorida ta'kidlaganimizdek, g'ishtar bilan berkitilgan bo'lib, g'ishtarlarining oralariga sopol parchalari terib chiqilgan, so'ng ustidan tuproq tortilgan³.

Sopolli bosqichida qabrlardagi jasadlarning 80 % boshi shimol tomonga

¹ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы – С. 38.

² Аскарлов А. Бронзовый век Южного Узбекистана (к проблеме возникновения локальных очагов древневосточных цивилизаций) // Афтореф. дис... д-ра. ист.наук. – Москва, 1976. – С.10.

³ Аскарлов А. Бронзовый век Южного Узбекистана // Афтореф. дис.... д-ра. ист. наук. – Москва, 1976. – С.14.

qaratilgan¹. Ma'lumki, dunyo to'rt tomonga bo'linsa, ularning ichida eng sovuq hududlar shimoliy tomon hisoblanadi. Sovuq, izg'irin "Avesto"da qorong'ulik, zimistonlik ramzi sifatida ifodalanib kelingan. Ushbu bosqichda marhumning boshi shimolga qaratilishi, ularning tasavvurida o'lgan odam qorong'u dunyoga, qaytib kelmaydigan tomonga ketayotganligi bilan bog'liq diniy qarash bo'lishi mumkin.

Sopollitepa qabrlari orasida ba'zida o'ra qabrlar ham uchraydi. Ularning ko'pchiligi chaqaloqlarga tegishli qabrlardir. Ammo yana uch holatda katta yoshdagi erkaklarga tegishli o'ra qabrlar ham uchratilgan. Bulardan ikki holatda erkak kishining skeletlari yorma qabr ichiga o'rnatilgan yog'och tobutga solib ko'milgan (82,85 qabrlar). Tobutning ichki qismi burchagida maydalangan don qoldiqlari (№85) ko'plab bronzadan mehnat qurollari va boshqa turmushda ishlatiladigan buyumlar, tosh mo'nchoqlar, oltin marjonlar (82) topilgan².

Sopollitepa bosqichida dafn etish ikki xil usulda bo'lib, bular qabrga marhum jasadining qo'yilishi va mayitsiz qabrlardir. Qabrga marhum qo'yilishini ham uch turga ajratish mumkin. Bular yakka, juft va odam bilan birga qo'yning ko'milishidir. shu o'rinda kenotaf qabrlarni ham ikki turga bo'lish mumkin. Bulardan, birinchisi, odam o'rni bo'sh (ehtimol u joyda loydan yasalgan marhumning sxematik haykalchasi bo'lgan), ammo idishlarda ovqat qo'yilgan. Ikkinchi holatda odam o'rniga kichik bir qo'y ko'milgan. Ba'zan kenotaf qabrlarda hayvonlarning juft ko'milganlik holati ham uchraydi. Masalan, № 90 qabr, bu erda er-xotin o'rnida ikkita qo'yning jasadi dafn etilgan³. Bu tUSDagi qabr erkak va ayolga tegishli ekanligini ko'rsatish mumkin.

Sopollitepadagi dafn etish usuli Sopolli madaniyatining keyingi bosqichlarida⁴ va qo'shni hudud madaniyatlari Bishkent-Vaxsh madaniyatlari yodgorliklarida ham asosiy dafn etish usuli sifatida kuzatiladi. Bu usul u davr

¹ Абдуллаев Б. Культура древнеземледельческих племен эпохи поздней бронзы Северной Бактрии.// Автореф. дис....канд. ист. наук. – Новосибирск, 1980. – С. 11-14.

² Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана.... – С.40. Аскарлов А. Бронзовый век Южного Узбекистана (к проблеме возникновения локальных очагов древневосточных цивилизаций) // дис... д-ра. ист. наук. – Самарканд, 1976. – С.58.

³ Ионесов В.И. Становление и развитие раннеклассовых отношений в оседлоземледельческом обществе Северной Бактрии // дис... канд. ист. наук. – Самарканд, 1990. – С. 92.

⁴ Алёшкин В.А. Социальная структура и погребальный обряд древнеземледельческих обществ. – Ленинград, Наука. 1986. – С. 29.

uchun yangilik emas edi. Xuddi shunday holat Janubiy Turkmanistonning ilk dehqonchilik yodgorliklarida, eneolit davriga tegishli Qoratepa manzilgohidagi 26 ta qabrda uchratilib, marhumning boshi janub va janubiy-g'arbga qaratilgan. Qabrlar asosan manzilgohning poli ostidan topilgan¹. YAshash uyining ostonasi ostiga va poli ostiga dafn etilganlik holati V.I.Sarianidi tomonidan Geoksyur vohasidagi manzilgohlaridan ham topilgan². Bu qabrlarning Sopollitepadan farqi, qabrda dafn etish anjomlari juda kam. V.I. Sarianidi shimoliy Afg'onistondagi Dashtli 1, 3 da ham marhumlar uyining ostonasi ostiga dafn etilganlik holatlari topilgan. Demak, bu usulda dafn etish O'rta Osiyo hududidagi dehqon jamoalarining eneolit va bronza davri uchun an'ana hisoblangan.

Bu davrda an'anaviy dafn marosimlarida ayrim o'zgarishlar yuz berganligini ko'rish mumkin. Sopollitepada o'rganilgan qabrlarning 8 tasida (14, 15, 22, 32, 10, 36, 37, 45) marhum xum va ko'zalarga solib dafn etilgan. Ehtimol, bu qabrlar otashparast ruhoniylar va ularning farzandlariga tegishli³ bo'lishi mumkin. Tuproqni muqaddasligini targ'ib qiluvchi din vakillari va ularning farzandlari xali ostadonlar kashf etilmagan kezlarda xum va ko'zalarga solib dafn etish usuli qo'llanilgan bo'lishi mumkin. Bunday usulda dafn etish zardushtiylikning ilk ko'rinishlari paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Taniqli avestoshunos olimi M.Boysning ta'kidlashicha⁴, tanadan jon chiqishi bilan uni yovuz kuchlar egallaydi. YOvuz kuchlar egallagan jasadni esa, muqaddas hisoblangan erga – tuproqqa qo'yish mumkin bo'lmagan. Masalan, marhumning ko'zaga solib dafn etilganlik holati 10-qabrdakuzatiladi. Bu qabr 1-2 yoshli bolaga tegishli bo'lib, idish yonboshlatilgan holatda, og'zi shimolga qaratilgan. Idishning og'iz qismi biroz singan, skelet g'ujanak holatda o'ng tomonga yonboshlatilgan va boshi shimolga qaratilgan⁵. Qabrga ashyoviy dalillar qo'yilmagan. 15-qabr yorma qabr bo'lib, unda katta xum joylashgan. Xumning og'zi shimol tomonga yonboshlatib yotqizilgan. Uning ichida 7-8 yoshlardagi bola skeleti joylashgan bo'lib, u

¹ Массон В.М. Карадепе у Артыке // Тр. ЮТАКЭ, – Том X, 1961. – Ашхабад, – С. 328-329.

² Сарияниди В.И. Энеолитическое поселение Геоксюр. Тр. ЮТАКЭ, – Том X, 1961. – Ашхабад, – С. 229-238.

³ Аскаров А. Ўзбек халкининг этногенези ва этник тарихи. –Тошкент, Университет, 2007. – Б-117.

⁴ Бойс М. Зороастрийцы: верования и обычаи. –М., 1987. – С. 57.

⁵ Аскаров А. Сапаллитепа. ... – С. 54.

g'ujanak holda, o'ng tomonga yonboshlatilgan, boshi esa shimolga qaratib qo'yilgan. Xumning og'zi tog'oracha bilan yopilib, uning ustidan bir qator g'isht terib chiqilgan. 32-qabrda chaqaloqning ko'za ichiga solib dafn etilganlik holati uchraydi. Ko'zaning yuqori qismi deyarli sinib, parchalanib ketgan. CHaqaloqning bosh suyak skeleti ham ezilib ketgan. Uni aniq qaysi tomonga qaratib qo'yilganligini aniqlash qiyin. Bundan tashqari yana, ko'zaga solib dafn etilgan marhumni 36-qabrda uchratish mumkin. Bu qabr asli jamoaviy qabr bo'lib, unga 5 ta odam dafn etilgan. Birinchisi 1 yoshli bolaga tegishli bo'lib, qabrning burchagida ezilib ketgan ko'za ichiga Sopollitepa odati (tartibi) asosida dafn etilgan. Bu qabrdagi qolgan 4 ta skelet ham 3 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli ekanligi aniqlangan. Qabrda ko'mish bilan bog'liq hech qanday buyumlar uchramaydi. Yana bir shunga o'xshash № 45-qabr 54-xonaning janubiy-g'arbiy burchagi ostidan topilgan. Bu qabrda chaqaloq ko'zaga solinib, boshi shimolga qaratib dafn etilgan. Ko'za deyarli sinib, parchalanganligi sababli skelet juda yomon saqlangan.

Ko'rinib turibdiki, bolalar qabrlarida ularni ko'mish bilan bog'liq anjomlar qo'yilmagan. Dafn anjomlarining bo'lmaslik holati Sopollitepa bosqichining barcha yosh bolalar dafn etilgan qabrlariga xosdir. Bu holat balki ularning jamiyatda xali o'z o'rniga ega emasligining dalilidir. Biroq, Sopollitepada yosh bolalarni ko'zaga solib dafn etish odati ayrim holatlardagina uchraydi. O'rganilgan qabrlarning aksariyat ko'plarida marhum suyaklari majaqlangan va tartibsiz joylashganligiga guvoh bo'lamiz. Bundan xulosa qilish mumkinki, marhumlar qandaydir baxtsiz xodisaning qurboni bo'lgan bo'lishi mumkin. 36 - jamoaviy qabrdagi bolalarning ko'proq shikast ko'rganligi sababli, zardushtiylik odatiga ko'ra, jasad erni iflos qilmasligi uchun u ko'zaga solib dafn qilingan bo'lishi ham mumkin.

Biroq, Sopolitepada katta yoshdagi kishilarning ham xumlarga solib dafn etilganlik holatlari uchraydi. Bu ham ularning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lganligi haqiqatga yaqinroqdir. Erni muqaddas hisoblagan din vakillarining farzandlari ko'zaga solib dafn etilgan, deb olsak, xumga ularning oila a'zolari

orasidagi katta yoshlilar, o'smirlar shu tartibda dafn etilgan bo'lishi mumkin. Baxtsiz xodisada yoki jangda halok bo'lgan kishi xumga solib kelinib dafn etilgan bo'lishi ham mumkin.

Sopollitepa bosqichining shu toifa qabrlariga 14-qabrni ko'rsatib o'tish joizdir. Qabrda 40-45 yoshlardagi erkak kishi xumga solib dafn etilgan. Xumning og'iz qismi erga qaratib yotqizilgan. Skelet orqasi bilan yotgan holda, oyoqlari juda ham bukilgan holatda ikki tomonga og'ib ketgan. Uning o'ng qo'l kafti toz suyagi ustida, chap qo'li chap oyoq suyagi ostida qolgan. Xumning tag qismida marhumning terisi va hattoki kiyim qoldig'i saqlanib qolgan. Qabrda, xum atrofida turli darajada saqlangan ko'p miqdorda sopol idishlar topilgan. 22-qabr 27-xonaning poli ostidan topilib, qabrda 5 ta sopol idish, qo'yning bir necha qovurg'asi va kurak suyagi borligi aniqlangan. Qabrning g'arbiy qismida uzunligi 110 sm kattalikdagi xum joylashgan bo'lib, u yonboshlatilgan holda og'zi shimolga qaratilgan. Xumning tag qismida yana 5 ta idish ichida ovqat qoldiqlari bilan saqlanib qolgan. Xumning ichida 25-30 yoshlardagi erkak kishining skeleti odatga ko'ra joylashgan. Marhumning bosh miya qismi qattiq ezilgan bo'lib, yuz qismi yaqinidan bronza bolta va uning dastasi topilgan. Skeletning elka suyagi tomonida bronzadan ishlangan hanjar ko'rinishidagi pichoq topilgan¹. Bu topilmalar marhumning jangchi yoki sarkarda bo'lganligiga ishoradir. Sopollitepada ayol kishining ham (№82) xumga solib dafn etilganlik holati uchratilgan. Xumning atrofida turli xil ko'rinishdagi sopol idishlar va bronzadan yasalgan buyumlar topilgan².

Sopollitepa aholisining dafn an'analaridagi bu odat o'sha davr uchun yangilik bo'lgan. Chunki neolit davri yodgorliklarida marhumni xumlarga solib dafn etish uchratilmagan. Bunday holatlar bronza davridan boshlanib, Oltintepa, Dashli va Xapuz-tepada ham uchratilgan³.

Sopollitepadagi ko'pgina mozorlarda hatto qabr bo'shlig'i mavjud, ya'ni qabrga tuproq o'pirilib, qabr tuproqqa to'lmagan. Mozorlar, ularga qo'yilgan

¹ Аскарлов А. Сапаллитепа. ... – С. 56-60.

² Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана.... – С.40.

³ Сарияниди В.И. Древние земледельцы Афганистана. – М., Наука, 1977. – С. 57.

ashyoviy dalillarga juda ham boy. Qabrlardagi ashyoviy buyumlar ularning abadiy o'linga ishonmaganliklaridan dalolat beradi. Qabrlarda 10 tadan 30-40 tagacha dafn etish anjomlari qo'yilgan bo'lsa, ularning asosan ko'p qismini sopol buyumlar, undan so'ng bronzadan ishlangan buyumlar va har xil taqinchoqlar tashkil etadi. shu bilan birga, T.shirinov Sopollitepa manzilgohida 4 mingga yaqin toshdan yasalgan mehnat qurollari va qurollar borligini aytib, ularning izohini beradi¹. Qabrlardagi ko'mish bilan bog'liq buyumlar orasida hattoki yumshoq buyumlar – teri, yog'och, bug'doy poya va novdalardan to'qilgan idishlar, kiyim qoldiqlari uchraydiki, bular o'sha davr odamlarining real hayotini aniq tasavvur etishga yordam beradi².

Marhum "narigi dunyoga" kuzatilar ekan, qarindoshlari va jamoadagi yaqin kishilari tomonidan maxsus ovqatlar tayyorlanib, idishlarga solib kuzatganlar. Zero, ularning e'tiqodiga ko'ra, bular "narigi dunyo"ga etib olguncha marhumga zarur bo'ladi, deb tasavvur qilganlar. Bunday tartibda dafn etish o'sha davr aholisi ongida vafot etgan yaqinlarini hamisha o'zlarining yonlarida, ularga madat berib turibdi, degan tushuncha kuchli bo'lganligiga ishoradir.

Sopollitepada katta yoshdagi ayollar qabridan muhrlar topilgan. Topilgan muhrlarda qanotini yozib turgan burgut, ilon, tuya, to'ng'iz, tog' echkisi, to'qay mushugi kabi jonivorlarning tasvirlari va turli geometrik shakllar tushirilgan. Ko'rinib turibdiki, bular katta patriarxal oilaning totemi bilan bog'liq tasvirlar bo'lishi haqiqatga yaqinroqdir. Bir patriarxal oilaning totemi burgut bo'lsa, ikkinchisiniki ilon, uchinchisiniki to'ng'iz va boshqalar bo'lganligidan dalolat beradi. Har bir oila a'zolarining shaxsiy ismidan tashqari oilaviy totem nomlari ham bo'lganki, ular o'zlarining kelib chiqishini shu hayvonlar bilan bog'laganlar. Ularning totem muhrlari qabila bayrog'ida, urug' oqsoqoli darvozasining peshtoqida aks etgan. Yana ular to'g'nog'ich va soch to'g'nog'ichlar³ shaklida ishlanib, sardor boshida toj belgisi sifatida taqib yurilgan bo'lishi mumkin.

¹ Ширинов Т. Орудия производства и оружие эпохи бронзы Среднеазиатского междуречья. – Т., Фан, 1986. – С. 36.

² Аскаров А., Буряков Ю.Ф., Квирквелия О.Р., Радилюковский В.В. Теоретические и методологические проблемы исследования в археологии. – Т., Фан.1988. – С. 23.

³ Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана.... – С. 142.

Ayollarning qabridan muhrning topilishi ayol kishi nasl davomiyligini ta'minlovchi ilohiy siymo sifatida ulug'langan va qabilada alohida e'tiborga loyiq bo'lgan. shu bilan birga ayollar oilasini, urug'ni boshqarishda erkaklar bilan tengma-teng huquqqa ega bo'lganligining belgisidir.

Dafn anjomlari tahlil qilinganda, yosh bolalarga tegishli qabrlarda ko'mish bilan bog'liq ashyolar deyarli uchramaydi. O'smirlar qabrlarida bittadan to'rttagacha uchrasa, katta yoshlilar dafn etilgan qabrlarda ularning miqdori ancha ko'pligi aniqlangan. Ko'rinib turibdi-ki, katta yoshdagilarning qabrida dafn etish anjomlari ko'p. Bu shundan dalolat beradiki, insonlarni dafn etish uning jamiyatdagi mavqeiga, xizmatiga qarab belgilangan. Qanchalik yoshi katta bo'lsa, uni ko'pchilik bilgan va dafn marosimiga ko'pchilik qatnashgan.

O'rta Osiyo va Yaqin sharq mamlakatlari qadimgi davri dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalarning dafn marosimlari ustida izlanish olib borgan V.A.Alyokshin Sopollitepa qabrlaridan 8 ta erkak kishiga va 13 ta ayol kishiga tegishli qabrlar ustida tahlil o'tkazib, ularni yoshlari bo'yicha guruhlariga ajratadi. Erkaklarni ikki guruhga: 1-guruhga 4 ta 25-30 yoshlardagi, 2-guruhga 40-50 yoshlardagi erkaklar kirgan. Birinchi guruhga nisbatan ikkinchi guruhda dafn etish anjomlari, bronza buyumlar ko'p topilgan. Ayollarni esa yoshiga qarab 4 guruhga ajratadi. 1-guruh – 20-35 yosh; 2-guruh – 35-40 yosh, 3-guruh – 40-50 yosh, 4-guruh – 60 yoshdan yuqori. Bu qabrlardagi dafn etish anjomlari tahliliga ko'ra, qaysidir bir guruhni ustun qo'yish juda ham qiyin kechgan. Chunki, guruhlar orasidagi qabrlarning ba'zilarida ko'p miqdorda sopol buyumlar (15 tadan 21 tagacha) bo'lsa, bronza buyumlari deyarli uchramaydi. Ayrimlarida esa, ko'p miqdorda bronza buyumlar bo'lib, idishlar miqdori kam. Katta yoshli ayollar qabriga o'simlik va go'shtli taomlar qo'yilgan. Erkaklarnikiga faqat go'shtli taomlar qo'yilgan. YOsh yigit va qizlarnikida go'shtli taomlar mutlaqo uchramaydi. Faqat boshoqli o'simlik donlaridan tayyorlangan suyuq taomlar qo'yilgan¹. Bundan ko'rinib turibdiki, erkaklarni jamiyatdagi o'rniga qarab,

¹ Алёкшин В.А. Социальная структура и погребальный обряд древнеземледельческих обществ. – Ленинград, Наука. 1986. – С. 30-31.

ayollarni esa, ba'zi ayollar qabrida muhr borligini aytmaganda, bronza buyumlar ko'p topilgan qabrlar jamiyatda uning yoki oilasining mavqei baland bo'lgan, deyish mumkin. Deyarli qolgan ayol kishiga tegishli qabrlar bir xil dafn etish anjomlari bilan ko'milgan.

Sopollitepa qabrlarida 6 ta holatda qabrga hayvonning – qo'yning ko'milganlik holati uchraydi. Dafn marosimida nafaqat Sopollitepa bosqichida, balki Sopolli madaniyatining keyingi bosqichlarida va xronologik jihatdan ularga tengdosh Tojikiston hududi yodgorliklarida ham (Ilk Tulxor, Teguzak, Kangurtut) hayvonni asosan, qo'yning qurbonlik qilinganlik holatlari uchraydi. Ushbu bosqichda 63 ta katta yoshlilarga tegishli qabrda qurbonlik qilingan qo'yning ma'lum bir a'zo qismlari, bir nechta qovurg'asi, 2 ta orqa oyog'i, bitta kuragi, ba'zan ko'krak qafasi ham idishga solib, qabrga qo'yilgan¹. Bu shundan dalolat beradiki, hayvonlar orasida qo'y dafn marosimlari uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Buni bugungi kunda diniy marosim va dafn marosimlarida ham qurbonlik uchun asosan qo'yning qurbonlik qilinishi, bu nafaqat ajdodlarimizdan qolgan udum, balki qo'yning diniy marosimlarda o'ziga xos ma'no-mazmun kasb etishi bilan bog'liqligini bildiradi. O'rganilgan qabrlar tahlili asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, sopollitepaliklarning ko'mish marosimida xumlarga va ko'zalarga solib dafn qilish odatining mavjudligi, zardushtiylik dinining ilk bosqichlari boshlanayotganligidan dalolat beradi. Dafn etishdagi xum va ko'zalarni ossuariylarning ilk ko'rinishi deyish ham haqiqatga yaqindir.

Sherobod vohasida olib borilgan izlanishlar natijasida, olimlar bronza davri yodgorliklarini ikki guruhga – markazi Sopollitepa qishloq-makoni bo'lgan Ulanbuloqsoy va markazi Jarqo'ton ilk shahar bo'lgan Bo'stonsoyga ajratadilar.

Jarqo'ton Sopolli madaniyatining noyob yodgorligi hisoblanadi. Jarqo'ton yodgorligining tarixiy topografiyasiga ko'ra, akademik A.Asqarov uni 4 qismga bo'ladi. Birinchisi, Jarqo'ton I, ya'ni mahalliy aholi orasida CHimqo'rg'on, deb atalgan yodgorlikning “ark” (sitadel) qismi; Jarqo'ton II yodgorlikning

¹ Аскарлов А. Бронзовый век Южного Узбекистана // дис....док. ист. наук. – Самарканд, 1976. – С. 62.

“shahruston” qismi; Jarqo‘ton III yodgorlikning “qabriston” (qabriston) qismi; Jarqo‘ton IV ob’ekti ham bir necha tabiiy tepaliklardan iborat qabriston qismidir¹.

Jarqo‘ton qabristoni katta hududni o‘z ichiga olib, ularni tadqiqotchilar Jarqo‘ton 3, Jarqo‘ton 4a, b, v, deb nomlaydilar². Jarqo‘ton qabristonida 1974 yildan boshlab keng ko‘lamda izlanishlar olib borilib, Jarqo‘ton 4a ning 1 gektarlik maydonidan 731 ta qabr ochilgan. Arxeologik materiallar tahliliga ko‘ra, Jarqo‘ton – 4a to‘rt xronologik davrga tegishli ekanligi aniqlangan³. Tadqiqotchilar Jarqo‘ton yodgorligining 5-tepaligidan, ya’ni “shahruston” qismidagi turar-joy majmualari ichidan sopollitepadagidek 50 dan ortiq qabrlarni ochishga muvaffaq bo‘lganlar . 1987-89 yilning o‘zida xuddi shunday dafn etilgan 10 ta qabr, qurol-aslahalari bilan 4-tepadan V.Ionesov tomonidan topib o‘rganilgan⁴. Xuddi shunday qabrlar yodgorlikning “ark” (sitadel) qismida yashash xonalari poli ostidan topilgan. Ularning barchasi Sopolli madaniyatining Jarqo‘ton bosqichiga tegishli ekanligi aniqlangan. Qabristonda olib borilgan izlanishlar Jarqo‘tonni ikkiga bo‘lish imkonini berdi. Ark va shahruston atroflaridan topilgan qabrlarni ilk Jarqo‘ton bosqichi, Jarqo‘ton 3 va Jarqo‘ton 4a,b,v qabristonlaridan topilgan Jarqo‘ton bosqichiga tegishli qabrlarni so‘nggi Jarqo‘ton bosqichi deb izohladilar.

Qabrning kirish qismi bir qator xom g‘isht bilan berkitilgan bo‘lib, g‘ishtlarning o‘lchami 55x23x10,5 sm va 55x22x10 sm bo‘lgan⁵. Jarqo‘tondagi qabrlar kirish ayvonchasidan keyin, bir zina ko‘rinishidagi pastlikdan lahad qazilgan.

Ilk Jarqo‘ton davrining Sopollitepadan farqi, qabrlarda diniy marosim odatlariga ko‘ra, qo‘yning odam bilan birgalikda ko‘milganlik holatlari uchramaydi. Sopollitepada marhum bo‘lmasa, o‘rniga qo‘yni ko‘mganlar. Ilk Jarqo‘ton davrida esa, marhumning jismi o‘rniga matodan yoki yog‘ochdan qo‘g‘irchoq tayyorlash odat tusiga kira boshlagan. Afsuski, ular hozirgacha etib kelmagan.

¹ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Т., Фан, 1977. – С. 47- 48.

² Аскарлов А, Абдуллаев Б. Джаркутан. –Т., Фан, 1983. – С. 17.

³ Абдуллаев Б. Новый памятник эпохи бронзы на юге Узбекистане // ОНУ, – №1, 1977. – С. 33-39; Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана.... – С. 48-49.

⁴ Ионесов В.И. Шеробод бўлими хисоботи. 1987. –Б. 16-19; 1988. – Б. 43-44.

⁵ Аскарлов А, Абдуллаев Б. Джаркутан. ... – С. 10.

Jarqo‘ton bosqichining ikkinchi fazasi ibodatxonaning qurilish davri bilan tengdoshdir. shuning uchun bu davr qabrlari ilk shahardan tashqarida, alohida qabristonga ko‘milgan. Bularga Jarqo‘ton 3 va Jarqo‘ton 4a, b, v ob’ektlari kiradi. Bu qabristonlarda Sopolli madaniyatining so‘nggi Jarqo‘ton bosqichidan tashqari Ko‘zali, Mo‘lali, Bo‘ston davri qabrlari ham uchraydi. Qabrlarning ko‘p qismini Ko‘zali bosqichi qabrlari tashki etadi. Demak, so‘nggi Jarqo‘ton davrida shahar aholisi uchun monumental ibodatxonaning paydo bo‘lishi, turli diniy urf-odatlarining markazlashishiga, tartibga solinishiga va mustahkamlanishiga olib keladi.

So‘nggi Jarqo‘ton davrida marhumni dafn etish uchun alohida, turar-joy manzillaridan chetda qabristonning paydo bo‘lishi, odamlarning mafkuraviy dunyoqarashi o‘zgara boshlaganligidan, ularning ongida diniy g‘oyalar chuqurroq ildiz ota boshlaganligidan dalolat beradi. Qabristonning yashash manzilidan chetroqda bo‘lishi, manzilgohda toza havoning ifloslanmasligiga qaratilgan e’tibordir.

So‘nggi Jarqo‘ton davriga tegishli 324 ta qabr o‘rganilgan bo‘lib, ulardan 306 tasi J 4a da, 3 ta J 4b da, 7 ta J 4v da, 4ta J 4g da va Bo‘ston 7 qabristonida 1 ta qabr borligi aniqlangan. Jarqo‘ton bosqichining ikkinchi fazasi dafn marosimlarini avvalgilari bilan solishtirilsa, bu davrda dafn etish odatlari o‘zgarib borganligi seziladi. Bu davrda marhumning boshi nafaqat shimolga, balki shimoliy-g‘arb tomonga ham qaratila boshlagan¹. Demak, marhumning boshi asta-sekinlik bilan g‘arbgaga qaratila boshlashi, ularning diniy dunyoqarashlarida o‘zgarish sodir bo‘layotganligining belgisidir. Balki, bu davrda quyoshga bo‘lgan e’tiqodning kuchayishi bilan quyosh botadigan tomonga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Odam umrining tugashini quyosh botishiga qiyoslagan bo‘lishlari mumkin.

Bu davrga tegishli 65 ta qabrda bronzadan ishlangan buyumlar topilgan. Erkak kishiga tegishli 3 ta qabrda xanjar va ketmon ko‘rinishidagi buyum, pichoq,

¹ Аскарлов А. Бронзовый век Южного Узбекистана // Афтореф. дис... д-ра. ист. наук. – Москва, 1976. – С. 12; Абдуллаев Б. Культура древнеземледельческих племен эпохи поздней бронзы Северной Бактрии // Афтореф. дис...канд. ист. наук. – Новосибирск, 1980. – С. 7; Ионесов В.И. Становление и развитие раннеклассовых отношений ... // дис... канд. ист. наук. – Самарканд, 1990. – С. 9. Аскарлов А, Абдуллаев Б. Джаркутан. ... – С. 12.

tesha, bolta, nayza o'q uchlari topilgan. Ayollar qabridan esa, bronzadan ishlangan oyna, braslet, sirg'a, surmadon, mehnat qurollari va boshqalar borligi aniqlangan¹.

So'nggi Jarqo'ton fazasida kenotaf qabrlarning soni kamayadi. Ular umumiy qabrlarning 3/1% tashkil etadi². Bu ko'rsatgich ushbu davrda mustahkam boshqaruv tizimi o'rnatila boshlaganligidan, qabilalar o'rtasida bo'ladigan urushlar ularning ustunligi bilan yakunlanganligidan, yovvoyi hayvonlarga qarshi maxsus qurollar yasali, ular bilan bo'ladigan to'qnashuvlar insonlar foydasiga hal bo'lganligiga ishoradir. Ularda hayvonlarni qurbonlik qilish holati deyarli uchramaydi. V.I.Ionesov o'z ishlarida, J- I davrida barcha kenotaf qabrlarda idishlar toq bo'lsa, J- II davrida idishlar juft bo'lganligini ko'rsatib o'tadi.

Jarqo'tondagi J 4a va J 4v qabristonlari to'liq ochib o'rganilgan. Bu ikkala qabriston bir-biriga yaqin, o'xshash va bir xil faoliyat bajarishiga qaramasdan, ularni o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi farqlari ham aniqlangan. J 4v qabristonida Bo'ston davri qabrlari ko'pchilikni (33,8%) tashkil etsa, bu ko'rsatgich J 4a qabristonida ancha kam (8,2%) ligi bilan xarakterlanadi. Bu qabristonlar kenotaf qabrlar bo'yicha yuqori ko'rsatgich bilan farq qiladi. J 4a qabristonida barcha qabrlarning 15,3%, J 4v da 36,6% ni, hayvon suyaklarining uchrash holati bo'yicha J 4a 11,5%, J 4v 46,6% ni, olov izlari va olov bilan bog'liq belgilarning uchrashi J 4a qabristonida 2%, J 4v qabristonida 38%ni tashkil etadi.

J 4v qabrlaridagi buyumlar ichida oshxonada ishlatiladigan tamg'ali xumchalar uchraydi. Idishlar orasida tag qismida uchburchak naqshli "dasht" idishlari, odam haykalchalari, bronzadan mitti idishchalar, mitti o'roqlar, qirrali boltasimon bolg'alar, ketmon va teshalar uchraydi. J 4v qabristonida sanab o'tilgan bu arxeologik jihatdan qimmatli ashyolar J 4a qabrlaridan topilmagan. J 4a juft ko'milgan qabrlarning ko'pligi bilan ajralib turadi. Bular o'rtasidagi eng asosiy farqni antropologlar T.K.Xodjaev, Xalilov va S.P.Mustafoqulovlar aniqlagan bo'lib, ular J 4a aholisining miya qobig'i, yuz tuzilishi sopollitepaliklarnikiga yaqinligini ko'rsatadilar.

¹Аскарлов А. Бронзовый век Южного Узбекистана // Афтореф. дис... д-ра. ист. наук. – Москва, 1976. – С. 11.

² Ионесов В.И. Становление и развитие раннеклассовых отношений ... // дис... канд. ист. наук. – Самарканд, 1990. – С. 99.

YUqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, J-4A qabristonidan asosan Ko'zali bosqichining o'rtalarigacha foydalanilgan. Ko'zali bosqichining o'rtalaridan boshlab, Mo'lali va Bo'ston bosqichlarida marhumlar J 4v qabristoniga dafn etilgan.

Qabrga qo'yilgan buyumlarning asosiy qismini sopol buyumlar tashkil etadi. Idishlar juda yaxshi pishirilgan bo'lib, ularning ba'zi birlarida, ko'zalarda ayrim belgilar uchraydi. Jarqo'ton davriga tegishli 350 ta qabrdan 1491 ta turli xil ko'rinish va vazifani bajaruvchi sopol idishlar topilgan. Bundan tashqari, bronzadan turmushda ishlatiladigan mehnat qurollari va qurol aslahalar, to'qish uchun bigiz (spitsa) (5 ta), hanjar, tikish bigizi (3 ta), chaqmoqtoshdan kamon o'q uchlari (8 ta) topilgan. Ayollarga tegishli qabrlardan turli xil zeb-ziynat buyumlari – soch to'g'nog'ich (34 ta), oyna (6 ta), braslet (40 ta), sirg'a (36 ta), surmadon va turli xil toshlardan munchoqlar topilgan. Bu buyumlarning ko'plab uchrashi, ularning rivojlanib borayotganligidan, o'z zamonasi uchun etarlicha madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Bu davrga tegishli 19 ta qabrda marhum bosh chanog'ining yonida idishlarda shohli hayvon suyaklarining topilishi oz bo'lsada, hayvonlarni qurbonlik qilganliklarini ko'rsatadi. Aniqrog'i, qo'y qurbonlik qilingan yoki ma'lum a'zo qismlari qo'yilgan qabrlarda dafn anjomlarining ko'pligi bilan ham boshqa qabrlardan ajralib turadi. Ularda ko'p miqdorda bronza buyumlar va sopol idishlar topilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Jarqo'ton bosqichida qo'yning qurbonlik qilinishi asosan, qabiladagi yoshi ulug', o'z mehnati bilan qabilada obro'ga ega bo'lgan shaxslarning qabrlaridagina uchratiladi.

Qabrlardagi ashyoviy dalillar va ularning tahlili, qo'shni hudud materiallari bilan qiyosiy solishtirish natijasida, jarqo'tonliklarni Afg'oniston, Turkmaniston, Tojikiston, Eron hududidagi dehqon jamoalari bilan o'zaro aloqa o'rnatganliklariga guvoh bo'lamiz. Bularga misol qilib, Jarqo'ton qabristonidan topilgan Jarqo'ton bosqichi sopol buyumlari Sopollitepa manzilgohining yuqori qurilish gorizonti va Dashtli – 3, Nomozgoh tepa, Ulug' tepa yodgorliklari sopol buyumlarga o'xshashligini aytish mumkin. Bundan tashqari, Jarqo'ton qabristonidan topilgan

bronza muhrlarni shimoliy Afg'oniston, Janubiy Turkmaniston va shimoliy-sharqiy Eron hududi yodgorliklaridan topilgan muhrlarga qiyoslash mumkin. Ularning davriy sanasi mil.avv. II ming yillik bilan belgilangan. Bunday qiyosiy topilmalar safi sopol buyumlar va muhrlar bilan cheklanib qolmaydi. Ularni yana metall buyumlarda, tosh munchoqlarda, mehnat qurollarida, kamon o'q uchlarining shakllarida ham ko'rish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, mil.avv. II ming yillikda O'rta Osiyo aholisi o'zaro bir-birlari bilan ijtimoiy, iqtisodiy va etnomadaniy aloqada bo'lganlar.

Ko'zali bosqichida qadimgi dehqonchilik madaniyatlarida bir qator yangi munosabatlar paydo bo'ladi. Buni dafn marosimlarining murakkablashib borishida ham ko'rish mumkin. Bu bosqichda nafaqat moddiy madaniyatda, balki diniy mafkurada ham yangi o'zgarishlar yuz beradi. Ko'zali bosqichi qabrlarida yagona diniy-mafkuraviy markaz – ibodatxonaning ta'sirini ko'rish mumkin.

Jarqo'ton qabrlarida olib borilgan izlanishlar natijasida Ko'zali bosqichiga tegishli 161 ta qabr aniqlangan. Keyingi izlanishlarda bu ko'rsatgich 182 taga etgan. Hozirgi kunda bu raqamlar yanada ko'paygan. Bu qabrlar butun Jarqo'ton qabristonidagi tepaliklarning deyarli barchasidan topilgan. Qabrlar asosan, ayvonli lahad ko'rinishida bo'lgan bo'lsada, ba'zan yorma qabrlar ham uchrab turadi. Bu bosqich qabrlarining avvalgilaridan farqi, ko'p qabrlarda kirish ayvoni qabrning shimoliy qismida joylashganligi bilan xarakterlanadi.

Ko'zali bosqichi qabrlarini o'rganish va kuzatish orqali, asosan uch xil ko'rinishda dafn etish usuli qo'llanilganligi aniqlangan. Bular quyidagilar: 1) yakka holatda; 2) odam bilan birga qo'yning ko'milganligi; 3) kenotaf qabrlar va ularda marhumning mitti ko'rinishi uchratilgan. Asosan qabrlarning ko'p qismida marhum yakka holatda odatdagidek yon tomoni bilan oyoq-qo'llari bukilgan holda dafn etilgan. Hayvonlarni qurbonlik qilish, ularning ma'lum a'zo qismlarini marhum bilan birga qabrga qo'yish odatlari ham kuzatiladi. Ko'zali bosqichiga tegishli bir qabrda odam jasadining etidan tozalab ko'milish holati uchratilgan.

Ularning dafn marosimlarida o'zidan oldingi bosqichlarga nisbatan o'zgarish yuz bera boshlaydi. Jarqo'ton bosqichida marhumning boshi biroz g'arbga

qaratilgan. Koʻzali bosqichiga kelib esa, deyarli barcha qabrlarda marhumning boshi gʻarbga qaratilgan¹. Bu ularning dunyoqarashida insonlarning hayotlik davrini quyoshli kunlar bilan qiyoslab, vafot etishini quyoshning botishi bilan zaminga tushadigan qorongʻulikka, sokinlikka, qiyos qilib, oʻzlarini bunga ishontirganliklaridan guvohlik beradi. Qabrga marhum joylashtirilgandan soʻng dafn etish anjomlari qabrning boʻsh qolgan tomoniga joylashtirib chiqilgan. Erkaklarning qabrida asosan jasadning orqa tomoniga, ayollarda esa, old tomonga joylashtirilgan.

Bu bosqichda dafn marosimlarining eng muhim xususiyati, qabrlarga dafn anjomlari mitti nusxalarining qoʻyilishini urf-odat tizimiga kiritilishidir. Bularni 22 ta qabrda bronzadan ishlangan kuraklar, sirgʻalar, braslet va mehnat qurollarining mitti koʻrinishlari uchrashida² kuzatish mumkin. Bular turmushda ishlatiladigan buyumlarni tejash, ulardan hayotiy faoliyat davomida foydalanishda davom etish uchun qilingan chora deyilsa, maqsadga muvofiq boʻladi. Ularni ramziy nusxalarini tayyorlash esa ibodatxona ixtiyoriga toʻlaligicha oʻtganligidan dalolat beradi. Darhaqiqat, Jarqoʻton ibodatxonasining ishlab chiqaruvchi xoʻjalik qismida maxsus ustaxonalar topilgan boʻlib, ularda Koʻzali davriga tegishli mitti bronza buyumlari va sopol haykalchalar tayyorlanganligi aniqlangan.

Mayitsiz qabrlarning soni Sopolli va Jarqoʻton bosqichiga nisbatan ancha koʻpayib, umumiy qabrlarning 30% ni tashkil etadi. Birdaniga mayitsiz qabrlarning koʻpayib ketishi, mintaqaga oʻzga etnik guruhlarining kirib kelishi bilan harbiy-siyosiy vaziyat murakkablashganidan va qabilalar oʻrtasidagi munosabatlarning keskinlashib ketganligidan darak beradi. Bu Oʻrta Osiyo hududlariga chorvador Andronova qabilalarining kirib kelishi bilan bogʻliq jarayon boʻlishi haqiqatga yaqindir. Bundan tashqari, J 4b qabristonidan Koʻzali davriga tegishli 7 ta qabr aniqlangan boʻlib, bularda 30-35 yoshlardagi erkak kishilarning tana aʼzo qismlari boʻlaklarga boʻlingan holda joylashtirilgan. Ularni yoshi va koʻmilish usuliga eʼtibor qaratsak, jangovorlik qobiliyatiga ega kishilar ekanligiga ishoradir. Ularni

¹ Абдуллаев Б. Культура древнеземледельческих племен эпохи поздней бронзы Северной Бактрии // Автореф. дис...канд. ист. наук. – Новосибирск, 1980. – С. 7; Аскаров А, Абдуллаев Б. Джаркутан... – С-12.

² Аскаров А, Абдуллаев Б. Джаркутан. ... – С. 12.

aynan bir joydaligi qanday o'lim topgan bo'lsalar ham shu falokatga birga uchraganliklarini ko'rsatadi. Ko'zali bosqichida diniy mafkura mustahkamlanib, barcha udum va urf-odat ishlari ibodatxona qo'liga o'ta boshlagan. Bu qabrlar zardushtiylikdagi etidan tozalab so'ng dafn etish odati paydo bo'la boshlaganligiga ishoradir.

Bu bosqich dafn marosimlarida qizil bo'yaqdan foydalanishga katta ahamiyat berganlar. Odam va hayvon jasadlariga, ba'zan mitti bronza buyumlarga ham qizil bo'yoq surtilgan. O'sha davr insonlar tasavvurida qizil rang quyoshning ramzi sifatida aynan marosimlarda ishlatilganligini arxeologik ashyoviy dalillar to'liq tasdiqlaydi.

Bu bosqichda ham hayvonni qurbonlik qilish holatlari bo'lganligini 13 ta qabrda qo'yning suyaklari – kuragi, orqa oyog'i va qovurg'asi borligida ko'rish mumkin. Kenotaf qabrlarda esa, hayvon suyaklarining uchrashi yuqori ko'rsatgichda bo'lib, umumiy kenotaf qabrlarning 53% ini tashkil etadi. Antropologlar Ko'zali bosqichi aholisining tuzilishini jarqo'tonliklarnikidan farqli tomonlarini ko'rsatib o'tadilar. Bunga ko'ra, ko'zali bosqichi aholisi yuz tuzilishi va peshonasi keng va katta, gavda tuzilishi ham katta bo'lgan¹. A.Asqarovning ta'kidlashicha, Ko'zali bosqichiga Xindiston madaniyatining ta'siri bo'lgan². Bu bosqichda o'zlariga qo'shni hududlardagi qabilalar bilan ham madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqada bo'lganliklarini ko'rsatuvchi ashyolar ham topilgan. Bular 112 – qabrdan topilgan tilla sirg'a, 240 – qabrdan topilgan tozabog'yob tipidagi bronzadan ishlangan brasletdir. Bu shundan dalolat beradiki, Ko'zali bosqichida qo'shni qabilalar bilan mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlar mustahkamlana borgan.

Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichi qishloq makoni va u bilan bir davrga tegishli 7 ta qabr ilk bor, 1970 yilda arxeolog B.Turgunov tomonidan sho'rchi tumani Qizilsoyning o'ng qirg'og'idan topilgan. Bu qabrlar tuzilishiga ko'ra, 2 tasi

¹ Алексеев В.П., Ходжайов Т., Халилов Х. Население верховьев Амударьи по данным палеоантропологии. – Т., Фан. 1984. – С. 184.

² Аскарлов А. Проблема становления раннегородской культуры на юге Узбекистана и ее связи Индостаном // Древние культуры Средней Азии и Индии. – Л., Наука, 1984. – С. 87-97.

to'g'ri to'rtburchak, qolganlari oval shaklida bo'lgan. Ushbu qabrlarda olib borilgan izlanishlar ularni Jarqo'tonning so'nggi bosqichiga tegishli qabrlarga o'xshashligi va davri bir ekanligi aniqlangan. shu sababli, Jarqo'tondagi bu davr qabrlari ham Mo'lali bosqichi nomi bilan o'rganila boshlagan. Jarqo'ton qabristonida **Mo'lali bosqichiga** tegishli 300 dan ortiq qabrlar aniqlangan. Jarqo'ton qabristonidan tashqari bu davriga tegishli qabrlar Bo'stonsoyning o'ng qirg'og'ida o'nlab tepaliklarda ham uchratilgan. Bu davr moddiy madaniyatida dasht etnomadaniy komponentining tarqalishi kuchayadi. Aholining son jihatdan ortishi, ishlab chiqarishda ijtimoiy va mol-mulk differensiyasi ortib borishi bilan xarakterlanadi.

Ushbu bosqich qabrlari tuzilishiga ko'ra, yorma va ayvonli lahad shaklidagi qabrlardan iborat bo'lib, ayvonli lahad qabrlarning kirish ayvoni asosan qabrning shimoliy qismida, ba'zi qabrlarda g'arbiy tomoniga joylashgan.

Mo'lali bosqichida marhumlar asosan yakka, ba'zan juft holatda dafn etilgan. Bundan tashqari, kenotaf qabrlar va odam bilan hayvonning birgalikda dafn etilganlik holatlari uchraydi. Marhumlar asosan odatga ko'ra dafn etilgan. Ba'zan yosh bolalarni va hatto to'rtta juft ko'milgan qabrlarda marhumlar xumlarga solib ko'milgan. Bu odat Sopollitepa davridan davom etib kelayotgan udumlardan biridir. Ushbu bosqichda marhumning boshini aniq bir tomonga qaratib qo'yish odati o'z qat'iyligini yo'qotadi. Biroq, izlanishlar natijasida qabrlarning ko'plarida skeletning boshi janubiy-g'arb va g'arb tomonga qaratilganligi aniqlangan. Demak, Ko'zali bosqichidagi an'ana davom etadi. shu bilan birga, boshqa tomonlarga qaratib qo'yilgan jasadlar ham topilgan. Ushbu hududda izlanish olib borgan V.Ionesov Mo'lali bosqichi dafn marosimlaridagi bu holatni, marhumni quyoshning joylashish holatdagi vaqtiga qarab joy tanlangan bo'lishi kerak, deb ta'kidlaydi. YA'ni marhum bir kunning turli vaqtlarida vafot etib, turli vaqtlarida dafn etilgan. shunga ko'ra, marhum ertalab dafn etilsa, sharq tomonga, kunduzi janubga, kechqurun esa g'arb tomonga qaratib qo'yilgan.

Bu holatda dafn etilishiga, Ko'zali bosqichidan boshlab katta guruh bo'lib kirib kelgan Andronova dasht qabilalarining ta'siri bo'lishi ham mumkin. Chunki,

Andronova qabilalarida marhumning boshini g'arbga qaratib qo'yish odati kuchli bo'lgan. Bu ularning e'tiqodida marhumni qaytib kelmas, qorong'u dunyoga ketganligiga ishora bo'lib, bu tartib dehqon jamoalari orasiga aynan ular kirib kela boshlaganlaridan keyin kuchayadi. Ungacha dehqon jamoalari marhumni dafn etishda yorug'lik bilan bog'liq bo'lgan tomonlarga qaratib qo'yish ko'pchilikni tashkil etgan. Ular odamlarning o'limini qabul qilgan bo'lsalarda, shu hayotini, mehnatini "narigi dunyo"da davom ettirishiga ishora beruvchi ashyoviy dalillar qabrlarda uchraydi. Aynan Ko'zali bosqichidan boshlab, buyumlarning qabrlarga kichik nusxalarini qo'yilishi, o'lgan odam endi qaytmasligi, hayotlik davrida ishlatgan buyumlari kerak bo'lmasligi e'tiborga olinib, insonlar bu haqiqatni tan ola boshlaganlar. Biroq, odamlar orasida bu an'anani birdagini yo'q qilib bo'lmasligi inobatga olinsa, ularning nusxalarini qo'yilishi ular uchun eng to'g'ri yo'l bo'lgan bo'lishi mumkin. Shu sababli, dafn anjomlarining birdaniga kamayishi, bronzadan mitti buyumlarning ko'payishi¹ Mo'lali bosqichida ham yaxshi kuzatiladi. Qabrga qo'yilgan sopol idishlarning usti oq va to'q qizil rang bilan qoplangan².

Mo'lali bosqichida 54 ta kenotaf qabr aniqlangan bo'lib, barcha qabrlarning umumiy qismidan 17% ni tashkil etadi. Bu ko'rsatgich Ko'zali davri kenotaf qabrlaridan teng yarim ko'rsatgich pastligi bilan farqlanadi. Ko'zali bosqichida o'zga qabilalar bilan bo'lgan to'qnashuvlar Mo'lali davriga kelib kamaygan bo'lishi mumkin emas. Chunki aynan, Mo'lali davrida dasht chorvador qabilalarining jadallik bilan kirib kelishi davom etadi. Demak, o'zga hududlardan kirib kelgan qabilalarga qarshilik ko'rsata oladigan darajada etarli tajriba va harbiy qurol-aslahalarga ega bo'lganlar. Ularni yasash usullari takomillashganligidan dalolat beradi. Qolaversa, kirib kelgan qabilalar avval mahalliy aholi tomonidan egallanmagan bo'sh hududlarga kelib joylashganlar. Bu orada ular mahalliy aholi bilan asta-sekin, tinch yo'l orqali aloqa o'rnatgan bo'lishlari ham tabiiy holdir. Shu sababli, mayitsiz qabrlar ko'rsatgichi Ko'zaliga nisbatan ozchilikni tashkil etgan.

¹ Аскарлов А, Абдуллаев Б. Джаркутан. ... – С. 14.

² Аскарлов А. Бронзовый век Южного Узбекистана ... // дис... док.ист.наук. – Москва, 1976. – С. 16.

Bunday qabrlarda qopqoqli silindrakonussimon sopol idishlar, ya'ni mitti ostadonlar uchratilgan. Ular xumdonda pishirilmay qizil bo'yoq bilan qoplangan. Bunday idishlar deyarli barcha kenotaf qabrlar uchun xosdir. Bu alomatlar quyoshga sig'inish, quyoshning erdagi parchasi "olov"ni muqaddas, deb bilganliklarining nishonasidir. Kenotaf qabrlar uchun yog'ochdan, matodan yoki loydan odamlarning mitti haykalchalarini yasash davom etadi. Ularning oldida bronzadan mitti buyumlarning borligi ham aniqlangan. Mo'lali davriga kelib dafn marosimlarida mayitni kuydirish odatlari ham paydo bo'la boshlaydi. Bu Andronova qabilalarining ta'siri natijasidir.

Qabrlarni qazish jarayonida ba'zi qabrlarda olov izlari ham uchraydi. shu bilan birga ko'p qabrlarda ko'mir va kul borligi aniqlangan. Ularning izlari jasad va dafn anjomlarining ustida ham uchraydi. Bu holat ham dehqon jamoalari marosimlari uchun yot bo'lgan, chorvador qabilalar bilan birga kirib kelayotgan dafn marosimlaridagi yangilik edi.

Mo'lali bosqichida dafn etish bilan bog'liq bo'lgan diniy marosimlar quyidagicha izohlanadi.

- 1) mehnat qurollari va qurol-aslahalarni bronzadan mitti ko'rinishini tayyorlash;
- 2) mayitsiz qabrlarga dafn marosimida qabrga qo'yish uchun oldindan loydan diniy marosim idishlarini tayyorlash;
- 3) (ayrim holatlarda) marhumni qabrga qo'yishdan oldin, etini suyagidan tozalab ajratib, so'ng uni tartib bilan qabrga joylashtirish ;
- 4) qo'yni dafn etish holatlari kuzatiladi.

Bu bosqich dafn marosimida ham hayvon qurbonlik qilingan. Ushbu bosqichga tegishli 51 ta qabrdan yoki qabrlarning umumiy qismidan 16,8% ida hayvon suyaklari borligi buning isbotidir. Qurbonlik uchun ba'zan yirik shohli hayvonning (qoramol) ham tanlangani, ayrim qabrlarda suyaklarining uchrashida kuzatiladi. Yirik shohli hayvonlarni juda kam uchrashi, bu ma'lum bir guruh a'zolarigagina tegishli bo'lgan, deyish mumkin.

Mo‘lali bosqichi ro‘zg‘or buyumlari sopollitepaliklarnikiga o‘xshashligi buyumlarning tahlili asosida aniqlangan. Qabrlardan topilgan bronza kurakchadan Sopollitepada, Ilk Tulxor qabristonida va Zomonbobo qabristoni topilmalari bilan qiyoslanadi. Murg‘ob vohasi, janubiy Tojikistondagi Nurek, Tandiryo‘l, Toxirboy-3 va Zarkamar qabristonida o‘tkazilgan izlanishlar natijasida topilgan ashyolar, sopol buyumlar Mo‘lali bosqichi sopol buyumlaridan farq qilmaydi¹. Nurek va Tandiryo‘lning davriy sanasi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi bilan belgilangan². Toxirboy-3 yodgorligi sopollari ustiga solingan zigzak belgilar Mo‘lali sopol idishlarida ham uchraydi. Bundan tashqari, yana Janubiy Turkmanistondan, Eronning Kaytarex qabristoni (mil.avv. II ming yillik oxirlari) sopollariga o‘xshashligi aniqlangan. Mo‘lali bosqichidan topilgan ikkita silindrlı idish Eron Seistoni – shaxri-Soxta manzilgohi 413-qabr sopollari bilan qiyoslanadi³.

shunday qilib, Mo‘lali bosqichi kulolchilik mahsulotlari O‘rta Osiyo, Eron va Afg‘oniston yodgorliklari bilan bir davrga tegishli bo‘lib, bular Bo‘ston-3, Mo‘lali, Nurek, Tandiryo‘l va Zarkamardir. Ularning sanasi mil.avv. XI – X asrlar bilan belgilangan.

Sopolli madaniyati dafn marosimlarini rivojlanishida **Bo‘ston bosqichi** muhim o‘rin tutadi. Bo‘ston bosqichi qabrlari arxeologlar tomonidan Bo‘ston I, II, III, IV, V, VI, VII deb nomlangan tepaliklarda joylashgan. Ushbu yodgorlikda qazish ishlari 1974 yilda A.Asqarov tomonidan boshlanib, uning izdoshlari tomonidan hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Ilk izlanishlar natijasida Bo‘ston davriga tegishli 168 ta qabr o‘rganilgan. Keyingi yillar mobaynida SamDU arxeologik guruhi N.A.Avanesova boshchiligida izlanishlar olib borilib, bu bosqichga oid ko‘plab yangiliklarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldilar. Bu davrning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bir tomondan, bir necha asrlar davomida o‘troq dehqon jamoalari dafn marosimlarining rivojlanishi davom etayotgan bo‘lsa,

¹ Аскарлов А, Абдуллаев Б. Джаркутан. ... – С. 42-43.

² Литвинский Б.А., Антонова Е.В., Виноградова Н.М., Раскопки могильники Тандирйул // АО, 1975г. – М., 1976. – 567-568; Пьянкова А.Т. Могильник эпохи бронзы Тигровая Балка // СА, 1974, – № 3, – С. 542-543.

³ Аскарлов А. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент, 1977. – С. 96.; Аскарлов А, Абдуллаев Б. Джаркутан. ... – С. 42-43.

ikkinchi tomondan, Sopolli madaniyati dafn an'analarining negizida yangi, qadimgi Baqtriya diniy – madaniy mafkurasi rivojlana boshlaydi. Buni dafn marosimlari amaliyotida mayitni yoqish – kuydirish odatlarining paydo bo'lishida ko'rish mumkin. Dafn marosimlarida olovning o'rni muhim bo'lganligi Bo'ston VI qabristoni orqali isbotlandi¹. Bu qabristonda asosan Mo'lali va Bo'ston bosqichi qabrlari joylashgan.

Ushbu qabristonda turli xil darajada saqlanib qolgan 230 dan ortiqlar aniqlangan. Qabrlar tuzilishiga ko'ra, o'ra va asosan ayvonli lahad shaklida bo'lgan. Qabrlarning lahad qismi to'g'ri burchak, oval (tuxumsimon) yoki aylana shaklida bo'lgan.

Bu bosqichda marhumning dafn etilishini 3 turga ajratish mumkin. Bular – yakka, juft skeletli qabrlar va odam bilan birga hayvon dafn etilgan qabrlardir. Ularning orasida asosiy qismini yakka holatda ko'milgan qabrlar tashkil etadi. Bundan tashqari, dafn marosimida Sopolli bosqichidan amalda bo'lgan odat, marhumni xumga solib ko'mish an'anasini ham uchratish mumkin². Bunday qabrlar faqat bolalarga tegishli qabrlardagina kuzatiladi.

Marhumning qabrda joylashish holatini V.Ionesov xuddi Mo'lali bosqichidagidek quyoshning harakatiga qarab qo'yilganligini aytadi. Qabrlardagi ko'plab marhumlarning jasadi g'arb, va janubiy g'arbgacha qaratilgan³. Bu shundan guvohlik beradiki, marhumni dafn etish oldidan uyushtiriladigan marosim va marhumni dafn etish kunning ikkinchi yarmida, quyoshning nurlari maromida taralgan vaqtda amalga oshirilgan. Marhumni qabrga joylashishida ham turli xillikni kuzatish mumkin. Bular – ayol va erkaklar uchun tabiiy bo'lmagan holatda ko'krak qafasigacha qattiq qisiltirilgan holda; marhum orqasi bilan yotgan holda, qo'llari bukilgan, yoki tana bo'yicha uzaytirilgan, oyoqlari ikki tomonga yoyilgan

¹ Ионесов В.И. Становление и развитие раннеклассовых отношений ... // Автореф. дисс... канд.ист.наук. – Самарканд. 1990. – С. 17; Аванесова Н., Ташпулатова Н. Символика огня в погребальной практике Сапаллинской культуры (по материалам исследования могильника Бустан VI) // ИМКУ, – № 30, 1999. – С. 27-36.; Аванесова Н. К проблеме относительной хронологии и периодизации Сапаллинской культуры // Ўзбекистон археологияси. 2010, № 1. – С. 119-127.

² Аванесова Н.А., Ташпулатова Н. Символика огня в погребальной практике Сапаллинской культуры (по материалам исследования могильника Бустан VI) // ИМКУ, – № 30, 1999. – С. 27.

³ Ионесов В.И. Становление и развитие раннеклассовых отношений ... // Дисс... канд.ист.наук. – Самарканд. 1990. – С.111.

holatda; qorni bilan yotgan holda oyoqlari tizzasigacha qattiq bukilgan va qo'llari biroz ko'tarilgan holatda; o'tirgan holatda, oyoqlari bukilgan (ayollar uchun) va boshqalar. Dafn vaqtida marhumning qabrga joylashtirilishdagi bu o'zgarishlar albatta o'sha davrdagi turli etnik guruhlarining ta'siri ekanligi haqiqatga yaqindir. Chunki, aynan o'tirgan holatda dafn etish Tojikiston hududidagi Tandiryo'l qabristonida ham uchratilgan¹. Biroq, shunday xilma-xillik bo'lishiga qaramasdan, erkaklarni o'ng, ayollar chap tomonga qo'l-oyoqlari bukilgan holatda ko'mish ko'pchilikni tashkil etadi.

Bo'ston bosqichida dafn etish turli xil usulda amalga oshirilgan. Bular – ingumatsiya; krematsiya, kenotaf qabrlarda marhum hamda dafn anjomlari qo'yilmagan holatda uchrashi qayd etiladi.

Qabrdagi dafn anjomlari Ko'zali va Mo'lali bosqichlari singari xo'jalikda ishlatiladigan buyumlar, bronzadan ishlangan qurol-aslaha va zeb-ziynat buyumlarning mitti nusxalarini qo'yish davom etgan . shu bilan birga, qabrlarda mitti ostadonlarning uchrashi ham kuzatiladi. Qabrlardan topilgan Sopolli madaniyati idishlari orasida dasht qabilalari ta'sirida yasalgan sopol idishlar ham uchratiladi. Ularning sirtiga to'g'ri burchak, zigzak, egri, siniq chiziqli naqshlar solish odat tusiga aylanadi.

Qabriston hududida olib borilgan izlanishlar natijasida 22 ta to'liq kuydirilgan va 8 ta qisman kuydirish usulida dafn etilgan qabrlar aniqlangan.

Bo'ston VI qabristonida olib borilgan izlanishlar natijasida, diniy marosimlarda olovga sig'inish muhim rol o'ynaganligi aniqlandi. Turli diniy marosimlarda olov turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'lganligini aytish mumkin. Bular: 1) odamning jasadini kuydirish uchun maxsus joy ko'rinishida; 2) odamni to'liq yoki chala kuydirish; 3) marhumni xotirlash uchun o'tkaziladigan marosimlarda qurbonlik qilish; 4) gulxan o'rni va kul qoldiqlari; 5) o'choq - otashgohning e'zozlanishi; 6) ko'mir, otashgoh va kulning kichik ko'rinishdagi holatlarining uchrashi; 7) idishlarda ko'mir yoki oxra qorishmalari; 8) odam

¹ Виноградова Н.М. Исследования контактов земледельческого и степного населения на юге Средней Азии (Южный Таджикистан) в эпоху поздней бронзы. «Археология, палеоэкология и палеодемография Евразии. Москва, 2000 – С. 91.; Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., ИВ РАН, 2004. – С. 130.

jasadiga oxra sepish; 9) qabrda olovning ramziy shakli sifatida mel va gipsning uchrashi; 10) ba'zi bir qabrlarning tag qismida oz miqdorda bo'lsada, olov izlarini mavjudligi va yana bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi¹. Bu kabi olovning turli ko'rinishdagi ramzlari asosan diniy dunyoqarashda aks etib, Bo'ston bosqichi aholisining e'tiqodi bilan bog'liq marosimlarda, udumlarida juda ko'p uchratish mumkin. Buni qabristonda mayitni kuydirish uchun maxsus joy - inshoot bo'lganligi va shu joyda odam suyagining kuygan holatlari, devorining kuyganligi va kameraning stratigrafiyasi ham tasdiqlaydi². Bu arxitektura qurilish usuliga ko'ra, g'ishtdan qurilgan bo'lib, to'rtburchak shaklda, aniqrog'i hozirgi (yashik) quti ko'rinishini eslatadi. Uning ustki qismi gulxan o'rnini bilan qoplanganligi aniqlangan.

Ma'lumki oriylarning "veda" sida diniy marosimlarda olovning o'rnini kattadir³. Bo'ston VI qabristonida mayitni kuydirish bilan bog'liq diniy marosim ibodatxonada emas, balki qabristonning o'zida bajarilgan bo'lishi mumkin.

Bo'ston VI qabristonining umumiy maydoni 4,06 ga ni tashkil etadi. Izlanishlar marhumni dafn etish turli usulda amalga oshirilganligini ko'rsatadi. Bular ingumatsiya, marhumni yoqib, so'ng dafn etilishi va ramziy qabrlar. Ingumatsiya – marhum g'ujanak holatda yonboshlatib, qorni bilan, orqasi bilan; o'tirgan holatda, orqasi bilan uzaytirib yotqizilgan holatda. Marhumni yoqish – marhumning suyak qoldiqlari, yoki krematsiyadan keyingi tuproq chuqurchasidagi holati; marhumning mitti ko'rinishi, gavda tuzilishiga mos gazlama parchalari. Bu ko'rinishlar marhumni yoqib so'ng dafn etganligiga ishoradir. Ramziy qabrlar – hayvonni (qo'y, it) ko'mish; odam va hayvon tuzilishida yasalgan haykalchalarning qo'yilishi; kamon o'q uchlari va boshqa mitti buyumlar⁴, bu qabrning marhumsiz, uning ruhi dafn etilgan qabr ekanligiga ishoradir.

Bu qabristondan ochib o'rganilgan 116-qabr ingumatsiya bo'lib, qabr yosh bolaga tegishlidir. Marhum qabrga biroz chap tomonga bukilgan va biroz orqasi

¹ Аванесова Н.А., Ташпулатова Н. Символика огня в погребальной практике ... – С. 27.

² Аванесова Н.А., Ташпулатова Н. Символика огня в погребальной практике ... – С. 27.

³ Ригведа, – X - 18.

⁴ Аванесова Н.А. Двенадцатый полевой сезон на некрополе Бустон VI // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2004-2005й. № 5, Фан. – Ташкент, 2006. – С.25.

bilan yotgan holda yuzi shimolga qaratilgan. Bosh chanog'ining yonida oxra bilan singan sopol parchalari, yuzining qarshisida yaxshi saqlangan 3 ta idish joylashgan. Bu idishlar Bo'ston bosqichi sopol buyumlari bilan xarakterlanadi. Skelet suyaklarining ustki qismini to'liq kul qoplagan. Boshining tag qismi biroz chuqur bo'lib, u erga ham kul (0,2 x 0,3 m) qo'yilgan¹. Demak, bu qabr shubhasiz Bo'ston bosqichi ingumatsiya qabridir.

317 – qabrning chuqurligi 1,01 m bo'lib, qabr ayvonli-lahad tuzilishiga ega. Kirish qismi uch qator pishgan g'isht va daryo toshlari bilan berkitilgan. Qabrning kirish qismidan dafn etish kamerasiga o'tish uchun tor kichik zina joylashgan. Dafn etish kamerasining g'arbiy tomonida (0,2 x 0,3m) krematsiya qoldiqlari (bu joyda gulxanda odam suyaklari kuydirilgandan keyingi qoldiqlari, ko'mir va kul) borligi aniqlangan. Qabrning shimoliy burchagida tog'orachada qo'yning qovurg'a suyaklari topilgan. Xuddi shunday ikkinchi tog'oracha kirish qismiga yaqin joyda joylashgan bo'lib, uning ichida ham qo'yning qovurg'alari va orqa oyoq suyaklari topilgan. Qabrning sharqiy devori o'rtasida 5 ta sopol idish joylashgan bo'lib, ular krematsiya qilingan odam suyagi bilan bir vaqtda qo'yilganligi aniqlangan. Ularning orasida qopqoqli kuldon ham bo'lib, idish bikonik shaklda, uning ichki qismida olov izlari, ya'ni ko'mir va mramordan ishlangan urchuqtosh topilgan². Demak, bu qabr Bo'ston davriga tegishli bo'lib, marhum jasadini kuydirish odati asosida dafn etganlar.

235 – “qabr” to'g'riburchak shaklida, tag qismi ya'ni poli tosh bilan qoplangan. Kvadrat shaklda saqlangan, chuqurligi (0,3 m) qazilgan bo'lib, bu qurilma mayda toshlardan, oq gips, shag'al va kuldan iborat. Uning atrofidan va toshlarining tag qismidan dasht qabilalarining sopol parchalari, zeb-ziynat buyumlari topilgan. Toshli polning atrofiga sopol siniqlari maxsus terib chiqilganki, bu ularning diniy marosimlaridagi qandaydir udum bilan bog'liq

¹Аванесова Н.А. К проблеме относительной хронологии и периодизации Сапаллинской культуры // Ўзбекистон археологияси. 2010, № 1. – Тошкент, – С. 121-122.

² Аванесова Н.А. К проблеме относительной хронологии и периодизации Сапаллинской культуры // Ўзбекистон археологияси. 2010, № 1. – Тошкент, – С. 123.

bo'lishi mumkin. Bu erdan ikkita gulxan o'rni va altar topilgan¹. Bu qabrdan odamning bosh qismi va o'ng yoki chap panjasi alohida joylashgan holda topilgan. Qazish ishlari natijasida 72 kv.m li maydonda diniy marosimlar o'tkaziladigan ob'ekt ochilgan. Bu erdan bronzadan munchoq, biser, lazuritdan munchoq, yarim qimmatbaho toshlar, kumush va bronza sirg'a qoldiqlari topilgan. Bu topilmalar marhumni bu erga ust-boshi bilan ko'milganligi haqida guvohlik beradi. Toshning quyi qatlamida 2 ta fedorov sopol parchalari topilgan. Demak, bu topilma tarkibini tashkil etgan toshli qurilmaga odam olamdan o'tgandan so'ng marhumni olib chiqib qo'yadigan supa ("daxma") bo'lgan². Bu joy o'lgandan so'ng ko'mish bilan bog'liq diniy marosim o'tkazadigan joy bo'lgan deyish maqsadga muvofiqdir.

Sopolli madaniyatining Bo'ston bosqichigacha bo'lgan bosqichlarida ham o'ziga xos yangiliklar, o'zgarishlar, rivojlanishlar bo'lganligini inkor etib bo'lmaydi. Biroq, Bo'ston bosqichi yangiliklar safining tez sur'atda kengayib, ko'payib borganligi bilan xarakterlanadi. Bu davrga kelib dafn marosimlarida olovning roli avvalgi bosqichlarga nisbatan ancha ahamiyati ortganligini, olov bilan bog'liq uning ramziy ma'nosini anglatuvchi jismlarning qabrlarda ko'plab uchrashida kuzatiladi. Qolaversa, qabrga marhumni joylashtirishdan oldin mayda daryo toshlari terib chiqilgan. Bu udum Sopolli madaniyatining faqat Bo'ston bosqichiga xosdir. Bu holatni "Avesto" ta'limotiga ko'ra, tanadan jon chiqishi bilan jasad nopok hisoblanib, uni muqaddas hisoblangan erga qo'yishdan oldin qabr ichiga mayda shag'al toshlar terib chiqilgan bo'lishi mumkin.

Bo'ston davri qabrlarida ham qurbonlik qilinganlik alomatlari uchraydi . So'yilgan hayvon suyaklari – qovurg'asi, kuragi va orqa oyog'i sopol idishga solinib, marhumning yuz tomoniga qo'yilgan. Ba'zida uning oyoq suyaklari yoniga keltirib qo'yilgan. Hayvonlarni qurbonlik qilish barcha o'rganilgan qabrlarning 26,2 % ni³ tashkil etadi.

¹ Аванесова Н.А. Храмовые функции сакрализованных площадок некрополя до исторической Бактрии – Бустон VI // Степи Евразии в древности и средневековье. Материалк Международной научной конференции, посвящённой 100-летию со дня рождения М.П.Грязнова. СПб., 2002. – С. 110.

² Аванесова Н.А. К проблеме относительной хронологии и периодизации Сапаллинской культуры // Ўзбекистон археологияси. 2010, № 1. – Тошкент, – С. 125.

³ Ионесов В. Становление и развитие раннеклассовых отношений ... // Дис... канд.ист.наук. – Самарканд, 1990. – С. 112.

Keyingi yillarda olib borilayotgan izlanishlar natijasida, hayvonlarni qurbonlik qilishda faqat qo'yni emas, balki echki, ba'zan buqa va otning ham orqa oyog'i, kuragi qabrga qo'yilganligi aniqlangan¹. Albatta bu o'zgarishlar chorvador dasht qabilalarining ta'siri bo'lib, ularda hayvonlardan faqat qo'y emas, balki hayvonlarning boshqa turlari (sigir, echki, ot) ham etarli bo'lganligidan dalolat beradi. Ularning orasida ot alohida ahamiyat kasb etib, jangovor-chorvador uchun transport vositasi sifatida ot suvoriylarning doimiy yo'ldoshi bo'lganligi sababli, o'lganda ham uning ma'lum a'zo qismlarini qo'shib ko'mish udumga aylangan.

Sopolli madaniyati sopol buyumlari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borgan U.Rahmanov Sopolli madaniyatining dasht aholisi bilan aloqalari bo'lganligini sopol buyumlardagi dashtliklarga xos idishlarda ko'rsatib o'tadi². Sopolli madaniyatining so'nggi bosqichida Evroosiyo dasht hududlarida istiqomat qilgan chorvador qabilalarning o'troq dehqonchilik jamoalari bilan aloqalari davomida ba'zida to'qnashuvlar ham yuz bergan. Bizning fikrimizcha, shimoliy Baqtriya bu ikki etnik guruhlarining uchrashuv, to'qnashuv hududlaridan biriga aylanadi. Yangi hududlarni zabt etgan chorvador Andronova qabilalari albatta, o'zlari bilan tegishli urf-odat, an'analarini ham olib keladi. Hattoki, ularning ta'siri o'sha davr ishlab chiqarish mahsulotlarida, dafn etish bilan bog'liq udumlarda, qabr ashyoviy dalillarida, jumladan: kulolchilik mahsulotlari, zeb-ziynat buyumlari, qurol-aslahalarida ham o'z aksini topgan.

Bu davrda jamiyatda tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Erga egalik qilish, er taqsimoti, erga bo'lgan ehtiyoj mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqaradi. Buni bir qabriston doirasida emas, balki shimoliy Baqtriyaning barcha yodgorliklarida turli xil dafn marosimlarda kuzatish mumkin. Bu davrda krematsiya holatlari uchrasada, ammo bu qabristonni to'liq egallamagan. Chunki, mahalliy dehqon jamoalari orasida ota-bobolaridan qolgan an'analar asosida dafn etish davom etadi. Bu dehqon jamoalari bilan chorvador qabilalar orasidagi munosabatlarning ijobiy tomonga o'zgarganligidan, ular o'rtasida qon-qarindoshlik

¹ Аванесова Н.А., Ташпулатова Н. Символика огня в погребальной практике ... – С. 27.

² Рахманов У, Шайдуллаев Ш. О влиянии культур степной бронзы на керамические комплексы Сапаллинской культуры // ОНУ №,11, Ташкент, 1985. – С. 59.

aloqalari oʻrnatilganligidan dalolatdir. Qolaversa, qaysi davr boʻlmasin, oʻzga qabila, oʻzga etnik jamoalar bilan yonma-yon yashar ekan, ular albatta birlarining eng yaxshi, oʻzlariga maʼqul jihatlarini oʻzlashtirganlar, ular esa dafn marosimlarida oʻz aksini topgan. Andronova dasht qabilalari shimoliy Baqtriyaning qaysi mintaqasi hududiga joylashmasin, ular oʻrtasida iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar oʻrnatilgan. Natijada, hozirgi Tojikiston hududida bronza davriga kelib oʻrnashgan dashtliklar bilan Sopolli madaniyati (Moʻlali va Boʻston bosqichi) aholisi oʻrtasida bronza davridan boshlab, ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar kengayib, mustahkamlanib borishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, Sopolli madaniyatining soʻnggi bosqichlariga tegishli mozorlarda zardushtiylikning belgilari, alomatlari paydo boʻla boshlagan. Masalan, kenotaf qabrlarda maxsus mitti ostadonlar, marhumning suyaklarini etidan tozalab koʻmish, murdani, dafn anjomlarini qizil rangga boʻyab qoʻyish yoki murda ustiga qizil rang sepish¹ kabi urf odatlar paydo boʻladi. Bu madaniyatda olov jamoaning asosiy eʼtiqod obʼekti – ramzi sifatida namoyon boʻladi. Qabrlardan qizil rangga boʻyalgan ostadon idishlarining chiqishi, zardushtiylik anʼanalari asosida koʻmish marosimining topilishi zardushtiylikning ildizlari asta-sekin shakllanib borayotganligidan guvohlik beradi. Jarqoʻton bosqichiga (J-II) kelib, butun shahar aholisiga xizmat qiluvchi monumental ibodatxonaning paydo boʻlishi va unda zardushtiylik dini bilan bogʻliq boʻlgan udumlarning mujassamlashganligi arxeologik materiallarda oʻz aksini topgan. Bular oʻz davrida aholining diniy-mafkuraviy jihatdan kuchli eʼtiqodga ega boʻlganliklarini anglatadi. Qolaversa, bu madaniyatdagi qabrlarning oʻrganilishi bizga bundan 3,5 – 4 ming yil avval ilk dehqonchilik bilan shugʻullangan ajdodlarimiz haqida, ularning urf odatlari, turmush-tarzi va dafn marosimlari haqida aniq tasavvur etishga yordam beradi.

¹ Асқаров А, Жўракулов М. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё. – Самарқанд, 1984. – Б. 54.

III. BRONZA DAVRI URUG‘ JAMOALARI DINIY

TASAVVURLARINING ARXEOLOGIK MANBALARDA KUZATILISHI

Ajdodlarimiz mehnat tufayli hayvont olamidan ajrab, odam sifatida shakllanish davrining so‘nggi bosqichlarini o‘tayotgan kezlarda (qadimgi tosh davrining muste bosqichi), yashash uchun kurash og‘irliklari, tabiat kuchlari oldida ojizligini seza boshlaydilar. shuning uchun o‘zlarining yashash mintaqalarida tirikchilik manbai bo‘lgan turli xil tabiat ne‘matlariga topina boshlaydi, ular tufayli yashashda davom etayotganligi haqidagi ilk tasavvurida ularni ilohiylashtira boshlaydilar. O‘sha davrlarda tabiatning ularga tortiq etgan mo‘‘jizasi turli hayvonlar va yovvoyi o‘simliklar bo‘lgan. shu boisdan bo‘lsa kerak, odamzod ilk diniy qarashlarida hayvonlar va daraxtlarga e‘tiqod qilish kelib chiqadi. Bu totemizm nomi bilan fanda o‘z o‘rnini topgan.

Zamonlar o‘tishi bilan ilk ajdodlarimiz rostmana odam, aqlli, ongli odam (fan tilida *Xomo sapiens-sapiens*, diniy qarashlarda Odam Ato va Momo Havo) bo‘lib shakllandi. Kishilik tarixida odamzodni jamoa bo‘lib yashash, ya‘ni urug‘chilik davri boshlanadi. Dastlab, urug‘ni onalar boshqarib, ular urug‘ning davomiyligini ta‘minlovchi, odamzodga jon ato etuvchi iloh sifatida tasavvur qilina boshlandi. Bu qadimgi tosh davrining yuqori paleolit bosqichida yuz beradi. shunday qilib, ajdodlar ruhiga sig‘inish, onalarni ilohiylashtirish fan tilida animizm, fetishizm, ajdodlar ruhiga sig‘inish, deb atalgan diniy qarashlarni paydo bo‘lishiga olib keladi.

Bu ibtidoiy diniy qarashlar arxeologik ob‘ektlarda, ajdodlarimizdan qolgan dafn marosimlarida yaxshi kuzatiladi. Ular arxeologik ob‘ektlarda ramziy ma‘noda qoya toshlarga, hayvon suyaklariga chizilgan turli xil shakllar, haykalcha qiyofasidagi ramziy ilohlar ko‘rinishida uchraydi.

Ibtidoiy jamiyat tarixini davrlashtirishda mezolit (o‘rta tosh davri), neolit (yangi tosh davri) va eneolit (mis-tosh davri) bosqichlarida odamlarning diniy tasavvurlar haqidagi qarashlari kengayadi. Bular urug‘ jamoalarining kichik-kichik jamoaviy tarmoqlarga, jamoaviy guruhlariga bo‘linishi bilan bog‘liq jarayonlar bo‘lib, bu jarayonlar davomida har bir jamoa guruhining o‘ziga xos xarakteri va

fazilatlari shakllanib borgan. Har bir jamoaviy guruh ma'lum bir hayvonni o'zlarining totemi sifatida ulug'laydilar. Bunday totemistik diniy tasavvurlar fanda zoolatrik totemlar, ya'ni o'zbekona iborada urug' jamoasining "laqabi"(totemiy belgisi) sifatida hayotiy an'anaga aylangan.

Bunday kultlar dinning norasmiy, markazlashmagan ko'rinishlaridan biri bo'lib, tarixiy shakl-shamoyiliga ko'ra, oilaviy yoki urug' kultlari va qabila kultlaridan iborat bo'lgan bo'lishi mumkin. Ular eneolit va bronza davriga tegishli tosh munchoqlar va tumorlarda, oilaviy, jamoaviy muhrlarda o'z aksini topgan va bizgacha etib kelgan. Bunday diniy qarashlarning ayrim ko'rinishlari xalq orasida hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, yosh bolaning qo'liga, bosh kiyimiga ko'zmunchoq, kiyimlariga tumor taqib qo'yiladi-ki, bular bolani turli xil ziyondan, nazardan asraydi, deyiladi.

Ibtidoiy diniy qarashlarning ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladigan ajdodlar ruhiga sig'inish alohida diniy qarash sifatida, fanda o'z isbotini topgan. U tarixiy taraqqiyotning ilk patriarxal urug'chilik bosqichiga xos¹dir. "Olamdan o'tgan otabobolar va urug' boshliqlarining ruhi avlodlarni balo-qazolardan asraydi", degan tushuncha, ushbu diniy qarashning mazmunini tashkil etgan. "Ruh doimo tirik, u odamzodni qo'llab-quvvatlaydi va unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi", degan tushuncha ushbu ibodat turining asosi hisoblangan².

Jarqo'tonda ajdodlar ruhiga ibodat qilish kabi diniy tasavvurlarning mavjudligi 2002 yilda O'zbek-Olmon Baqtriya ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida ham isbotlandi. Jarqo'tonning ark hududidan patriarxal oilaga tegishli uy to'liq ochib o'rganildi. O'rganilgan uy 9 xonadan iborat bo'lib, ikki tomonida shag'al tosh to'shalgan yo'lak joylashgan. Ushbu uyning devori, pollari va tosh yo'laklar tagidan Jarqo'ton davriga oid 7 ta qabr ochib o'rganilgan. Tosh yo'lakning yonida alohida qurilgan xona bo'lib, xona ichida uning markaziy qismida supa joylashgan. Tadqiqotchilar bu xona patriarxal oilaning ibodat qiladigan xonasi bo'lgan, deydilar. Ushbu xonadan erkak kishining

¹ Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бактрия мисолида). Т.ф.д. дис. автореф. – Самарқанд, 2009. – С. 25.

² Токаров С.А. Ранние формы религии. –М., Наука, 1990. – С. 255.

bosh va bo'yin qismidan iborat bo'lgan haykali va homilador ayolning qorin qismi, dumaloq shakldagi embrion ifodalangan loydan yasalgan massa topilgan¹.

Erkak kishining bosh qismi haykali juda yaxshi saqlangan bo'lib, uning soch-saqollari qora rangda tasvirlangan. YUz yanoqlari, burni, bo'yni qizil rangda bo'lib, burni qirra burun, og'zi ochiq holatda, quloqlari shalpang quloq tarzda ifodalangan. Ko'zlari esa yumilgan holatda tasvirlangan bo'lib, bu o'lgan odamning haykali bo'lishi mumkin.

Ikkinchi haykal ayol kishiga tegishli bo'lib uning qorni dumaloq, homilasiga ishora qilish uchun qorin qismi bo'rttirib ishlangan. Saqlanib qolgan ikki qo'li esa, qorni ustiga qo'yilgan holatda, qo'llari bilan qorni o'rtasida ikkita ilonning harakatlanib borayotganligi ifodalangan. Qorin va qo'llarining har-har joyi qizil bo'yoq bilan bo'yalgan. Qorin qismida 2 ta embrion ko'rinishidagi loy massasi ham mavjud. Homilador ayol haykalining ayrim joylari qizil rangga bo'yalishi va ilon tasvirining tushirilishi narigi dunyoga ishora hisoblanadi. Ma'lumki, mifologiyada qizil rang qonni, ilon esa er osti ilohiyotidan dalolat beradi. Bunday haykal, ya'ni homilador ayol haykali Sopollitepa qabrlarida ham uchratiladi. Bu ikki haykalda ya'ni o'lgan odamning haykali va ajdodlar ruhining homilador ayolni, u dunyoga keltirishi kutilayotgan chaqaloqlarni balo-qazolardan saqlanishi, ya'ni ajdodlar ruhiga sig'inishning arxeologik jihatdan moddiy madaniyatda kuzatilishi², deyish mumkin.

Sopolli madaniyatida olovga sig'inish ham asosiy o'rinda turgan bo'lib, olovning bir ko'rinishi sifatida altarni aytib o'tish joiz. Sopolli madaniyati yodgorliklarida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida jami 12 ta altar topilgan bo'lib, ular tuzilishiga ko'ra, ikki turga ajratiladi. Bular – doira shaklidagi altarlar va kvadrat shakldagi altarlardir.

Doira shaklidagi altarlar ilk marotaba O'rta Osiyo hududida eneolit va bronza

¹ Шайдуллаев Ш.Б., Дитрих Хуфф, Рахимов К. «Жаркўтон - 2002» // Археологические исследования в Узбекистане 2002 год. – С. 202-204.

² Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши // ...т.ф.д. дис... Автореф. – Самарканд, 2009. – С. 25.

davrlaridan boshlab keng miqyosda tarqalishi kuzatiladi¹. Doira shaklidagi altarlar Sarazm madaniyatining eneolit davriga tegishli qurilish qatlamida², Janubiy Turkmanistonning eneolit davri yodgorligi hisoblangan Geoksyur 1, 7 yodgorligida³, Janubiy Tojikiston hududidagi so‘nggi bronza davriga oid ilk Tulxor qabristonida⁴ kuzatiladi.

Ikkinchi turdagi altarlar to‘rtburchak tarzda bo‘lib, ular keng hududda tarqalmagan. Bunday altarlar Jarqo‘ton yodgorligida ikkita topilganligi ham uning keng miqyosni egallamagligidan dalolat beradi.

Janubiy Tojikiston hududida ko‘p yillar izlanish olib borgan A.M.Mandelshtam bronza davriga oid ilk Tulxor qabristonidagi erkak kishi dafn etilgan bir qabrdan to‘rtburchak shakldagi altarni, ayol kishiga tegishli bir qabrdan aylana shaklidagi altarni uchratadi⁵. Odatda doira shakli bu ona er va quyoshning ramziy ma‘nodagi ko‘rinishini ifodalasa, to‘rtburchak shakli o‘sha davr nuqtai-nazaridan qaraganda tabiatning to‘rt muqaddas unsuri – quyosh - er yuziga issiqlik energiya etkazuvchi, uning erdagi parchasi sifatida olov, er – unumdor tuproq, musaffo havo, suv – obi hayotning bir e‘tiqod buyumida mujassamlashganligi bo‘lishi mumkin. Agar bu masalaga falsafiy nuqtai-nazardan yondashilsa, ayol kishi qabridan dumaloq shakldagi altarning topilishi Ona er va energiya, issiqlik, iliqlik taftini ulashuvchi quyoshga yaqin qiyoslab e‘zozlangan, erkaklar esa erning, toza havoning, suvning muqaddasligini, sofliqini saqlovchi, qo‘riqchisi sifatida qaralgan bo‘lishi mumkin.

Keyingi yillarda Sopolli madaniyatida olib borilgan tadqiqot ishlari altarlar va ikki kamerali o‘choqlarni joylashishiga qarab, Sopolli madaniyatining ilk bosqichlarida ular oilaviy olovga sig‘inish o‘chog‘i bo‘lganligi e‘tirof etilmoqda. shu kabi e‘tiqodning ko‘z ilg‘amas ko‘rinishlari Ko‘zali va Mo‘lali bosqichlarida markazlashgan ibodatxona paydo bo‘lishi bilan ham butunlay yo‘q bo‘lib

¹ Раҳимов К.А. Сополли маданияти ёдгорликларида олов билан боғлиқ қурилмалар ва ошхона идишлари типологияси // т.ф.н. дис... – Самарқанд, 2011. – Б. 108.

² Исаков А. Саразм – новый раннеземледельческий памятник Средней Азии // СА, – №6, 1986. – С. 152-167.

³ Сарианиди В.А. Памятники позднего энеолита юго-восточной Туркмении // Археология СССР. САИ. Б. 3-8. Част 4. М., 1965, – С. 87-89.

⁴ Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в южном Таджикистане ... – С. 8-60, 125-129.

⁵ Ўша асар. – С. 8-46.

ketmagan. Ibadatxonada odamlar jamoa bo'lib olovga sig'inish va shu bilan bog'liq ko'pchilik tomonidan bajariladigan turli diniy udumlar, marosimlarni bajarganlar. shu bilan birga har bir patriarxal oilada ham o'zlarining maxsus oilaviy sig'inish altarlari ham mavjud bo'lgan.

Jarqo'ton yodgorligi shahristonining 6-tepaligida 2 ta to'g'rito'rtburchak shaklidagi kul saqlanadigan o'ralar borligi aniqlandi¹. Ulardan birining chuqurligi 2 metr bo'lib, qurilma devorlarining ichki qismi kul bilan qoplangan. Yana shunday kul saqlanadigan o'ra Jarqo'ton ibodatxonasidagi xonalarning birida ham borligi aniqlangan. Bu o'ra tuzilishiga ko'ra, cho'zinchoq shaklda bo'lib, chuqurligi 70 sm ni tashkil etadi. Tadqiqotchilar bu o'ralarni muqaddas olovda yongandan keyingi cho'g'larni ertalabgacha o'chirmasdan saqlash uchun mo'ljallangan maxsus joy bo'lganligini aytib o'tganlar. Cho'g' ham olovning bir qismi bo'lganligi sababli, bu bilan olovning manguligini, o'chmasligini ta'minlagan bo'lishi mumkin. O'ralarning usti havo kirmaydigan darajada yopilgan va cho'g' ertalabgacha o'chmasdan saqlangan. Ertalab cho'g'ni maxsus silindr shaklli idishlar yordamida keragicha olib chiqib, yana olov hosil qilganlar.

Bu yodgorlikda izlanish olib borgan T.shirinov ushbu cho'g' tashishga moslashgan idishni qo'lga olib yurishga qulayligini hisobga olib, ko'chma altarlari deb ataydi². Jarqo'ton ibodatxonasidan altarlarning topilishi olov insoniyat hayotida, turmush-tarzida, e'tiqodida naqadar muhim o'rin egallaganligidan, uning muqaddas bo'lganligidan dalolat beradi. Chunki olov quyoshning erdagi parchasi sifatida insoniyat uchun issiqlik, energiya beruvchi tabiatning muqaddas unsuri sifatida e'zozlangan.

Olovni hosil qilish murakkab jarayon bo'lganligi sababli, qadimda odamlar olovni o'choqlarda o'chirmasdan saqlashga harakat qilganlar³. Olov nafaqat qadim zamonlarda, balki hozir ham insoniyat hayotida muhim o'ringa egaligini hisobga olsak, uning hamisha jamiyat uchun, insoniyat uchun kerakli manba ekanligini

¹ Рахимов К.А. Сополли маданияти ёдгорликларида олов ... // т.ф.н. дис... – Самарқанд, 2011. – Б. 131.

² Аскарлов А., Ширинов Т Древнебактрийский храм огня // – Т., 1989; Ширинов Т. Алтари огня из храма Джаркутан – памятника эпохи развитой бронзы // ИМКУ, – Вып. 23. – Ташкент, Фан. 1990. – С. 70-78.

³ Бойс М. Зороастрийцы: верования и обычаи. –М., 1987. – С.10.

e'tirof etish joiz.

Keyingi yillarda sh.shaydullaev Jarqo'ton yodgorligida olib borilgan izlanishlarda markazlashayotgan yagona din sharoitida unga qadar bo'lgan diniy tasavvurlarning sarqitlari beixtiyor namoyon bo'lishini ashyoviy dalillar asosida ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. Bunday diniy qarashlardan biri zoolatrik diniy qarashlardir.

Tarixdan ma'lumki, jamoa bo'lib yashash davridan, asta-sekinlik bilan ilk sinfiy jamiyatga o'tila boshlagan. Bu davr esa, insoniyat olamida tabaqalanishning yorqin ko'rinishlari bilan namoyon bo'ladi. Bronza davrida juft oilalarning mustahkamlanib borishi, unumdor erlarga bo'lgan ehtiyojlarning ortishi avvalgi davrlardagi oqsoqollarning mavqeini yanada oshishiga olib keladi. Ular er taqsimotini qattiq nazoratga ola boshlaydilar. Avvaliga erlar har bir juft oilaning imkoniyatiga ko'ra o'zlashtirilgan bo'lsa, keyinchalik unumdor havzaviy joylarni o'zlashtirish urug' oqsoqollarining nazoratiga o'tadi. Urug' jamoasining manfaati yo'lida jonbozlik ko'rsatganlar, uddaburon tadbirkorlarning ko'payishi tufayli jamoa a'zolari orasida tabaqalanish yuz bera boshlaydi. Natijada, o'z mulkiga va boshqaruv mavqeiga ega jamoa a'zolari o'zaro manfaatdorliklari yo'lida, boshqalar ustidan boshqaruv huquqini qo'lga ola boshlaydilar. Bu jarayon tabiiyki, jamiyatning mafkuraviy qarashlarida ham o'z aksini topadi. Ularning diniy qarashlarida otashparastlik yuqori o'rinda bo'lib, diniy-mafkuraviy siyosat ularning manfaatiga xizmat qila boshlaydi. shunday sharoitda, oddiy xalq totemlarga e'tibor qaratadilar. Bunday e'tiqod ko'rinishlari ko'proq hayvon kultlari orqali ifodalangan.

Shimoliy Baqtriya hududida hayvon kultlarining ulug'lanishi, ularga e'tiqod qilganliklari to'g'risidagi ma'lumotlar sh.shaydullaev tomonidan ilk bor tahlil qilinib, u otashparastlik dini jamiyatda hukmron mavqega ega bo'lgan kezlarda ham zoolatrik diniy qarashlar mavjud bo'lganligini asosladi. M.Esanov esa, bu masalaga o'z tadqiqotlarida to'xtalib, ayrim hayvonlarning diniy e'tiqod tizimida kult sifatida e'zozlanganligini tahlil qilib ko'rsatadi.

Kultlarni kelib chiqish ildiziga ko'ra, turlarga ajratadi. Bular: hayvon,

parranda, o'simlik va turli jonivorlar kultlaridir. Qadimgi Baqtriya va Marg'iyona yodgorliklarida totemistik kultlarning asosini – ilon, burgut, qurt-qumursqalar, yirtqich hayvonlar va daraxtlar tashkil etgan. Bu totemistik kultlar bronza davrining so'nggi bosqichiga kelib yo'q bo'lib ketadi. Buning asosiy sabablaridan biri, bronza davri dehqon jamoalari orasida sug'orma dehqonchilik va undan keladigan daromad asosiy o'rinni egallashidir. Dehqonchilikdan keladigan to'kin – sochinlikning asosiy manbai quyosh, er, suv ekanligini anglagach, asta-sekinlik bilan turli xil totemistik kultlar, ya'ni zoolatrik diniy qarashlar o'rnini tabiatning to'rt unsuri quyosh, er, suv va havo jamoaning barcha a'zolari uchun hayotiy haqiqatga aylanadi. Tabiatning bu to'rt unsurini ulug'lash, ularni iflos qilmaslik kabi tushunchalar kishilar ongida, tasavvurida paydo bo'la boshlaganki, aynan shu xislatlar bizning xalqimizga qadim ajdodlarimizdan bugungi kunimizgacha etib kelgan. Bronza davrining so'nggi bosqichlaridan boshlab, ularga atab turli xil marosimlar, bayramlar uyushtirib kelganlar. Buning natijasida dehqonchilik jamoalari tasavvurida har bir narsaning ibtidosi va in'ikosi quyosh bilan bog'liq, degan hayotiy tushuncha shakllanadi. shu tariqa odamlarning diniy tasavvurida otashparastlik dini mustahkam o'rin oladi¹.

Otashparastlik dini paydo bo'lgach, avvalgi totemistik diniy qarashlar endi kishilarni yomon ko'zlardan asrovchi omil sifatida tumorlarda aks eta boshladi. shu bilan birga, ma'lum bir boshqaruv huquqiga ega bo'lgan qabila oqsoqollarining muhrlarida ham namoyon bo'la boshlaydi.

Ma'lumki, hayvonot olami uch turga bo'linadi. Bular - er osti, er usti va osmon hayvonlaridir. Barcha hayvonlar ham zoolatrik diniy qarashlarga asos bo'la olmaydi. Jarqo'ton misolida zoolatrik diniy qarashlarni terrakot haykalchalar misolida kuzatish mumkin. Ma'lumki, terrakot haykalchalar o'sha zamon kishilarining ideologik qarashlarini o'zida mujassam etadi². Jarqo'ton yodgorligidan topilgan sigir (ho'kiz), tuya kabi hayvonlar shaklidagi terrakot

¹ Эсанов М. “Авесто” жамиятининг археологик материалларда акс этиши (Қадимги Бактрия ва Марғиёнанинг бронза даври моддий маданият ёдгорликлари мисолида). Т.ф.н. дис... –Т., 2007. – Б. 87.

² Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши // ...т.ф.д. дис... – Самарқанд, 2009. – Б. 131.

haykalchalar, muhrlarda aks etgan ilon, burgut kabi hayvonlar orqali Jarqo‘ton aholisining e‘tiqodida zoolatrik diniy qarashlar ramzi sifatida saqlanib qolganligi aniqlangan.

Sigir – nafaqat uy hayvoni sifatida, balki u oila to‘kin – sochinligini ta‘minlovchi ilohiy hayvon turi sifatida ifodalanadi. Sigirning zoolatrik diniy xarakter kasb etganligini O‘rta Osiyo xalqlari haqida ma‘lumot beruvchi ilk yozma manba “Avesto” da keltirilgan ma‘lumotlarda ham uchratish mumkin. Hayvon (sigir) ilk marotaba Axuramazda tomonidan Aryanam Vaydjoda yaratilgan¹. Ilohiy Daiti daryosining o‘ng qirg‘og‘ida oy singari oq ho‘kiz bunyod bo‘ldi².

Yana bir zoolatrik diniy xarakterdagi hayvonlardan biri “Baqtriya tuyasi”, deb nom olgan ikki o‘rkachli tuyadir³. Bronza davriga tegishli Marg‘iyona va Xuroson hududlaridagi yodgorliklarda tuya tasviri ifodalangan muhr va terrakot haykalchalar ko‘plab topilgan⁴. Qolaversa Andronova madaniyatida mil.avv. XV-XIII asrlarda ikki o‘rkachli tuya tarqalganligi aniqlangan⁵. Bizga ma‘lumki, tuya hayvonlar orasida issiqqa va suvsizlikka eng chidamli hayvon hisoblanib, qadimdan bir mamlakatdan boshqa bir uzoq mamlakatlarga safar uchun yoki savdo karvonlari uchun ikki o‘rkachli tuya asosiy yuk tashuvchi transport vositasi sanalgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ikki o‘rkachli tuya bronza davri qabilalari uchun ham asosiy transport vositasi vazifasini o‘tagan.

Ikki o‘rkachli tuyaning ilohiy hayvon bo‘lganligini, ya‘ni zoolatrik xarakter kasb etganligi bir nechta dalillar orqali o‘z isbotini topadi. Bularning birinchisi, tuyaning terrakot haykal sifatida ifodalanishi bo‘lsa, “Avesto”da u “kuchli”, “badjahl” hayvon sifatida tilga olinadi. Yana bir asosiy isboti sifatida zardushtiylik dinining asoschisi ismida tuya so‘zining qo‘llanilishidir. “Zaraoushtra” dagi

¹ Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши // ...т.ф.д. дис... Автореф. – Самарканд, 2009. – Б. 20-21.

² “Авеста”. Бундахишна, VI.

³ Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши // ...т.ф.д. дис... – Самарканд, 2009. – С. 132.

⁴ Сарианиди В.И. Протозорострийский храм в Маргиане и проблема возникновения зороастризма // ВДИ. – М., 1989. – № 1. – С. 152.

⁵ Кузмина Е.Е. Древнейшая фигурка верблюда из Оренбургской области и проблема домастикации бактрианов // СА, 1963. – № 2. – С. 39.

“ushtra” so‘zi tuyani anglatishini bu hayvonning ilohiylik belgisidir¹. Ikki o‘rkachli tuya mil.avv. III-II ming yilliklarda Markaziy Osiyoda xonakilashtirilganligi va mil.avv. II ming yillikda Mesopotamiyagacha kirib borganligi haqida ma’lumotlar bor².

Jarqo‘tondan topilgan bir muhrda bir tomonida ikki o‘rkachli tuya, ikkinchi tomonida esa, odamning ming yilliklar davomida asl ko‘rinishini yo‘qotgan aksi o‘z ifodasini topgan. Agar ushbu muhr tahlili bilan bog‘liq farazlarimiz to‘g‘ri bo‘lsa, u holda tarixiy shaxs Zardusht hayotini avestoshunos olimi Meri Boys ta’kidlaganidek so‘nggi bronza davri bilan bog‘lash imkonini beradi. Ilk zardushtiylik paydo bo‘la boshlagan hudud sifatida esa, Turon o‘lkasi deyish mumkin. Arxeologik izlanishlar ilk zardushtiylik ko‘rinishidagi ibodatxonalarning paydo bo‘lishini ham hududiy jihatdan Qadimgi Baqtriya va Marg‘iyona hududlariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Ammo tadqiqotchilarning aksariyati bu ibodatxonalarni otashparastlar ibodatxonasi, deb talqin etadilar. To‘g‘aloq, Dashli, Jarqo‘ton, Gonur ibodatxonalaridan topilgan ashyoviy dalillar bu ibodatxonalarni nafaqat otashparastlar ibodatxonasi, balki ilk zardushtiylik ibodatxonasi bo‘lganligiga ishora qiluvchi dalillarning mavjudligi ham bunday fikr berish imkoniyatini yanada oshiradi. Aslida zardushtiylik dini ham otashparastlikning zaminida paydo bo‘lgan. Zardusht tomonidan din isloh qilinganligi inobatga olinsa, demak ularning kelib chiqishi, ilk bosqichlari ham otashparastlik dini va unga e’tiqod qilish kuchli bo‘lgan hududlarda, otashparastlar sig‘inadigan mafkuraviy markazlar bor joyda paydo bo‘lishi haqiqatga yaqinroqdir.

2001 yilda Jarqo‘ton hududidagi 5-tepalikning g‘arbiy va shimoliy tomonlarida o‘zbek-olmon ekspeditsiyasi tomonidan tepalikning stratigrafiyasi va planigrafiyasiga aniqliklar kiritish maqsadida, stratigrafik shurflar qazildi. Bu tepalikda 1979-1981 yillarda tadqiqotchilar yirik patriarxal oila uyi platforma (qalinligi 1,10m) ustiga qurilganligini aniqlaganlar. Platformaning sathidan

¹ Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши // ...т.ф.д. дис.. автореф. – Самарканд, 2009. – С. 21-22.

² Иванов В.В. О соотношении археологических, лингвистических и культурно-семиотических реконструкций на материале комплекса Тоголок – 21 // ВДИ. – М., 1989. – №2. – С. 173.

Jarqo‘ton davriga oid bronza eritadigan o‘choq, xo‘jalik o‘chog‘i va uchta yosh bolaning qabri topilgan¹. Ushbu fundament sathidan ko‘plab arxeologik ashyolar topilgan bo‘lib, ular orasidagi alohida e‘tiborga loyiq topilma xlorid toshdan yasalgan muhr – tumordir. U doira shaklida bo‘lib, markazida diametri bo‘ylab taqib yurishga mo‘ljallangan teshikchasi va har ikki tomonida chizib ishlangan tasvirlar mavjud. Uning birinchi tomonida o‘ljaga tashlanayotgan sher, sherning oyoqlari tagida esa, unga yopishayotgan ilonlar tasviri, ikkinchi tarafida ho‘kiz ifodalangan bo‘lib, u oyoqlariga yopishayotgan ilonlarga qarshi kurashayotgan holati tasvirlangan². Ushbu tasvirlar, ayniqsa ilonlarning turli xil hayvonlar oyog‘i ostida ifodalanishi Baqtriya-Marg‘iyona topilmalari uchun xos bo‘lgan syujet hisoblanadi.

Keyingi izlanishlarda zoolatrik diniy qarashlarga e‘tibor qaratilib, ularning Baqtriya va Marg‘iyonada keng tarqalgan turlari sifatida ilon, sigir, qurbaqa, chayon, turli xil qushlarning izohi berilgan³.

CHayonlarning hayot tarzi asosan qorong‘ulikda, soyada o‘tganligi uchun qorong‘ulikni uning ramziy timsoli sifatida olish mumkin. Sopollitepa topilmalari orasida ham chayon va ilon tasviri tushirilgan tumor va tosh munchoqlar ko‘plab uchraydi. Odatda chayonlar kechqurunlari ov qiladi, deyarli o‘z tirikchilik faoliyatini tunda o‘tkazadilar. Zardushtiylik dinida yovuzlik, yomonlik kuchlari sifatida qora rang ifodalanishi, bu nafaqat zardushtiylikda, balki bugungi kunimizda ham yomonlik, yovuz niyyatli ishlar qora rang timsolida gavdalanib, ularga nisbatan “qora niyyatli” ishlar tarzida qo‘llaniladi. Fasllar ichida qish mavsumi qora kunlar sifatida ko‘rsatilib, Navro‘z bayramini qora kunlarning ketishi va yangi kunning – yorug‘ kunning boshlanishi, yangi kunning tug‘ilishi, deb diniy bayram sifatida nishonlashgan. Biroq, shuni ham ta’kidlash joizki, qish faslining sovuqligi yovuz kuchlarga qiyoslansa, uning bezagi, ziynati bo‘lgan

¹ Шайдуллаев Ш, Хуфф Д, Рахимов К. Жаркўтон – 2001 // Археологические исследования в Узбекистане 2003 год. – Т., 2004. – Б. 190.

² Шайдуллаев Ш, Хуфф Д, Рахимов К. Жаркўтон – 2001. – Б. 191.

³ Эсанов М. “Авесто” жамиятининг археологик материалларда // Т.ф.н. дис... –Т., 2007. – Б. 86-100.

qorning yog‘ishi, uning oq rangligi qishning sovuq havosini yaxshilik tomonga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Sopolli madaniyatida yana bir diniy qarashlarga asos bo‘la oladigan shunday ashyo topilganki, u “narvon” dir. Sopollitepa yodgorligidagi № 89 qabrda bronzadan yasalgan “narvon” ning mitti nusxasi uchratilgan¹. Bunday ko‘rinishdagi narvon nusxalari Jarqo‘ton qabrlarida ham uchratiladi. Tadqiqotchilar “narvon” nusxasining qabrlarda uchrashini narigi dunyo bilan bog‘laydilar², ya’ni “narvon” narigi dunyoga o‘tish yoki animistik tushunchalardir³, deb izohlaydilar. Hattoki, narvon shaklini Jarqo‘ton piktografik belgi – yozuvlarida ham ifodalanishi inobatga olinsa, demak, narvon o‘sha davr odamlari ongida nafaqat bir oddiy xo‘jalik turmushi uchun kerakli buyum tarzida, balki insonlar tasavvurida o‘zlari yaratgan diniy tushunchalar, qarashlar bilan ham bog‘liq bo‘lgan.

¹ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана.... – С. 41–196; Аскарлов А, Абдуллаев Б. Джаркутан. Табл. XLV. 15.

² Шайдуллаев Ш. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши... // т.ф.д. дис. – Б. 142.

³ Аскарлов А, Абдуллаев Б. Джаркутан. – С. 46.

XULOSA

Har bir xalq o'z o'tmishi tarixiga ega. O'zbek xalqi ham necha asrlilik, ming yilliklar davomida shakllanib, turli davrlarning, turli xil zarbalariga uchrab, ularni bardosh bilan engib kelgan xalqdir. Xalqning xalq sifatida tanitadigan, qadim ajdodlaridan meros bo'lib qoladigan urf-odatlar, turli xil o'zga xalqlardan aynan shular orqali farqlanadi.

Shimoliy Baqtriyaning xilma-xil geografik iqlim sharoiti bu o'lka aholisining moddiy madaniyatini shakllanishida yorqin o'z aksini topgan. Shimoliy Baqtriya hududlari bronza davridan boshlab turli etnik guruhlarining uchrashuv maskani, iqtisodiy xo'jalik va etnomadaniy aloqalar maydoniga aylangan. Shu boisdan, tadqiqotchilar, jumladan B.A. Litvinskiy, L. T. Pyankova va I.M. Vinogradovlar Bishkent-Vaxsh madaniyatlari aholisining kelib chiqish tarixiy ildizlarini Sopolli madaniyati etnosiga borib taqalishini to'g'ri qayd qiladilar.

Ammo, chorvador Bishkent-Vaxsh madaniyatlari aholisining etnik tarkibi mutlaqo Sopolli madaniyati aholisining tabiiy-geografik sharoit tufayli an'anaviy xo'jalik yuritishdan voz kechib, tog' hududi muhitiga xos o'troq chorvadorlarga aylangan jamoalardan iborat emas. Chunki, ularning tarkibida, bu joylarda, qadimdan yashab kelayotgan tub joyli etnik qatlami mavjudligini unutmaslik kerak. Aslida, Bishkent-Vaxsh madaniyatlari aholisi tarkibida ana shu mahalliy aholi ham qatnashgan bo'lib, ular qatorida Sopolli madaniyati jamoalari ham o'z o'rniga ega bo'lgan. Bu haqda antropologik materiallar va ayniqsa Vaxsh madaniyatiga xos kulolchilik mahsulotlarining qiyosiy tipologiyasi guvohlik beradi¹.

Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmi davomida bu o'lkaga yana bir o'zga etnik guruhlar kirib keladi.

Sopolli madaniyatining Mo'lali bosqichida bu o'zga etnik guruhlar shimoliy Baqtriyaning mahalliy o'troq dehqonchilik madaniyati qishloqlari va chorvador qabilalari jamoalari ichigacha kirib boradilar. Bu holat Jarqo'ton, Teguzak,

¹ Виноградова Н.М. Юго-западный Таджикистан в эпоху поздней бронзы. – М., 2004.

Kangurt-tut, Karimberdi, Ilk Tulxor, Ilk Aruktau, Tigrovaya Balka, Vaxsh, Makoni-mor, Bishkent I,II,III, Oyko'l, Jarko'l qabristonlari misolida yaxshi o'rganilgan. shuningdek, shimoliy Baqtriyaga xos tabiiy-geografik muhit mintaqa etnik guruhlari xo'jalik shakllarining rivojlanish yo'llarini oldindan belgilab bergan.

Arxeologik izlanishlar geografiyasiga ko'ra, shimoliy Baqtriyaning bronza davri yodgorliklari tog' oldi hududlari va tog'lar oralig'idagi vohalarda, daryo havzalarida topilgan. Hududiy jihatdan ular hozirgi kunda ikkita mustaqil suveren davlatlar –O'zbekiston va Tojikiston hududlariga to'g'ri keladi. Janubiy O'zbekiston hududiy doirasida miloddan avvalgi II – ming yillikda katta va kichik hududiy doiradagi dehqonchilik vohalari shakllangan. Bu vohalarda o'troq dehqonchilik madaniyatiga oid qator yodgorliklar borligi aniqlangan va o'rganilgan. shimoliy Baqtriyaning Tojikiston qismida esa, asosan bronza davrining chorvador qabilalari yashagan hamda uning Janubiy O'zbekistonga chegaradosh hududlarida, bronza davrining so'nggi bosqichlarida qadimgi dehqonchilik qabilalari yashaganliklari haqida guvohlik beruvchi yodgorliklar ham topilgan. Bular Kangurtut, Teguzak, Tandiryo'l yodgorliklaridir.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmida shimoliy Baqtriya hududlarida turli iqtisodiy xo'jalik va etnik guruhlarga tegishli qabilalar yashab, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy manfaatdorlik asosida qurilgan etnomadaniy aloqalar hozirgi zamon o'zbek va tojik xalqlarining shakllanishida dastlabki tarixiy ildiz, etnik asos bo'lib xizmat qilgan. Bu tarixiy muhit jarayonlari ularning antropologik va etnografik qiyofasida, kundalik turmush tarzida, shodiyona kunlari va motam marosimlari bilan bog'liq urf-odat va udumlarida o'z aksini topgan. Bu holatlar ulardan bizgacha etib kelgan moddiy madaniyatda o'z aksini topgan. Ularni o'rganish, ularning shakllanish tarixiy ildizlarini ochish shunchalar muhimki, ular zaminidagi ezgulik g'oyalari hozirgi zamon yosh avlod qalbida nish ura boshlagan milliy iftixor, o'zlikni anglash, Vatan tuyg'usi kabi qirralarini tarbiyalashda birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Biroq, bu boy tarixiy madaniyat va ma'naviyat sarchashmasi

ob'ektiv davriy uyg'unlikda, xronologik ketma-ketlikda o'rganilsagina ilmiy ahamiyat kasb etadi. Aks holda moddiy va ma'naviy manba birlamchilik xususiyatini yo'qotadi.

Shimoliy Baqtriyaning xilma-xil geografik iqlim sharoiti bu o'lka aholisining moddiy madaniyatini shakllanishida katta rol o'ynaganligi hisobga olinib, etnik guruhlarining asosi aniqlandi. Chunki, shimoliy Baqtriya bronza davrida turli etnik guruhlarining uchrashuv maskani, etnomadaniy aloqalar maydoni bo'lib, bu omillar ularning tilida, etnik qiyofasida o'z aksini topgan.

Qadimda shimoliy Baqtriya hududini tashkil etgan turkiy va forsiy xalqlari hamisha yonma-yon yashab kelganlar. Bu ikki xalqning o'tmishi davomida diniy e'tiqod va shu bilan bog'liq udumlarga alohida e'tibor berib kelinganligi, bugungi kunda moddiy madaniyatda ham o'z aksini topmoqda. Diniy e'tiqodlarning shakllanishi va rivojlanishida esa, ularning dafn marosimlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu tadqiqot ishi orqali bronza davrida shimoliy Baqtriyaning o'troq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan qabilalarning dafn marosimlari va diniy e'tiqodlari hamda bu ikki xo'jalik sohiblarining o'zaro munosabatlari tahlil etildi. Dafn marosimlarining qanchalik mukammal bo'lishi, dafn marosimlariga e'tibor qaratilishi u xalqda insonning qadri ulug'ligidan dalolat beradi. Bunday holatni biz bugungi kunimizda ham ko'rishimiz mumkin.

2010 yilning 18 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik Palatasi tomonidan qabul qilingan, 3 dekabrda Oliy Majlisning Senati tomonidan ma'qullangan, O'zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2010 yilning 27 dekabrda № O'RQ – 276 raqam bilan imzolandi va qonun kuchga kirdi. Dafn marosimlari to'g'risida maxsus qonunning qabul qilinishi, bu qadriyatlarni qadr topayotganligining nishonasidir.

Ushbu tadqiqot ishida, hududiy jihatdan shimoliy Baqtriyaning tanlab olinishi, bir davrda ikki xil xo'jalik asosida kun kechirgan ikki qo'shni hudud aholisining qanchalik yaqinligi, qay darajada bir-birlarining marosimlarini o'zlashtirishlarini moddiy madaniyat orqali o'rganish imkoniyatini berdi. Bularni dafn marosimlari

orqaligina kuzatish, o'rganish va tahlil qilish mumkin. Dafn etilgan inson bilan birga qo'yilgan anjomlar, dafn etish usullari, ularni qo'shni hudud materiallari bilan qiyosiy o'rganish, bu davr haqida ishonchli va aniq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi.

Dafn marosimining qanchalik dabdabali bo'lishi marhumning hayotligidagi obro'-e'tiboriga, oiladagi va jamiyatda tutgan o'rniga, mavqeyiga bog'liq bo'lgan. shunga asosan marhumni dafn etish marosimi oilaviy, mahalla va butun qishloq ishtirokida o'tkazilgan, deyishga asos beradi¹.

Tadqiqotni o'rganish jarayonida mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish va arxeologik materiallarni qiyosiy o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Shimoliy Baqtriyaning hududiy tarkibini tashkil etgan janubiy O'zbekiston va janubiy-g'arbiy Tojikiston o'z iqlim sharoitiga ko'ra, bir tomonda dehqonchilik, ikkinchi tomonda esa, chorvachilikning rivojlanishiga olib keldi. Dehqon va chorvador jamoalar o'rtasida o'zaro ijtimoiy, iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar, bu aloqalarni moddiy madaniyatda aks etishi Jarqo'ton, Teguzak, Qangurtut, Tandiryo'l, Bo'ston kabi yodgorliklarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, janubiy-g'arbiy Tojikiston hududlari so'nggi bronza davrida turli etnik guruhlarining o'zaro iqtisodiy, siyosiy hamda etnomadaniy aloqalar markazi bo'lgan. Bu holat bronza davrida o'zbek va tojik etnosining shakllanishida ilk asos bo'lib xizmat qiladi.

- Shimoliy Baqtriyaning Janubiy O'zbekiston hududlarida dehqonchilik madaniyati takroriy sug'orma dehqonchilik asosida rivojlandi. Tojikiston hududidagi bronza davri yodgorliklari tog' va adirliklarda joylashganligi sababli, mazkur hududda yaylov chorvachiligi va lalmikor dehqonchilik, bog'dorchilik rivoj topadi. Hatto ularning uy-joy qurilishida ham farq borligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Dehqonchilik vohalarida asosan xom g'ishtlar asosida qishloq-qo'rg'onlar qurishga katta e'tibor berilgan bo'lsa, chorvadorlar tog'li hududlarda

¹ Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Т., Фан. 1977. – С. 152.

yashaganliklari sababli, ularning uy-joy qurilishida toshdan foydalanishga katta e'tibor berilgan. Xatto, uy-joylarning fundamentiga tosh yotqizilgan.

- Janubiy-g'arbiy Tojikistonning bronza davri Beshkent va Vaxsh madaniyatlari bir-biriga juda yaqin, o'xshash, yagona bir madaniyatni tashkil qilsalarda, ular o'rtasida qandaydir farqlar borligini ko'rish mumkin. Beshkent madaniyatiga kiruvchi Ranniy Tulxar qabristonida krematsiya qilingan qabrlar uchraydi. Bu albatta chorvador Andronova qabilalari moddiy madaniyatdagi ta'sirining kuzatilishidir. Bu jarayon Mo'lali bosqichidan avvalroq yuz bergan. Sopolli madaniyatining Bishkent va Vaxsh madaniyatlariga ta'siri Mo'lali bosqichi davrida yuz berdi. shuning uchun Sopolli madaniyatining Mo'lali davri sopollari Vaxsh madaniyati yodgorliklarida ko'plab uchratilgan. Demak, Beshkent madaniyatiga andranovliklarning kirib kelishini xronologik jihatdan birinchi davr deb olsak, Vaxsh madaniyatiga Mo'lali bosqichining ta'siri xronologik jihatdan ikkinchi bosqichini tashkil etadi.

- Jarqo'ton manzilgohidan tashqarida bunyod etilgan maxsus qabristonlar, Sopollitepaga nisbatan jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi yuqori darajada bo'lganligidan dalolat beradi.

- Bishkent - Vaxsh madaniyatining shakllanishida Xisor, Sopolli va Dashtli va Andronova jamoalari ta'siri kuchli bo'lganligi ilmiy tahlil etildi.

- Sopolli madaniyati otashparastlikdan zardushtiylikka o'tish davrni xarakterlaydi. Sopolli madaniyatining ilk bosqichi Sopollitepadan zardushtiylikning ko'z ilg'amas izlari paydo bo'la boshlagan bo'lsa, bir necha yuz yillar davomida bu izlar asta-sekin yorqinroq ko'rinishda namoyon bo'la boshlagan. Sopolli madaniyatining so'nggi Mo'lali va Bo'ston bosqichlarida zardushtiylik deb atashga asos bo'luvchi shunday omillar paydo bo'ldiki, buni olimlar ta'kidlaganidek, protozardushtiylik deb emas, balki ilk zardushtiylik shakllana boshlagan davr deyish mumkin.

- Sopolli madaniyatining Jarqo'ton bosqichida vujudga kelgan va keyingi bosqichlarda ham to'la amalda bo'lgan Jarqo'ton ibodatxonasi, u erdan topilgan ashyoviy dalillar ushbu ibodatxona "ilk zardushtiylik ibodatxonasi" ekanligining

yorqin dalilidir. Aynan ibodatxona bilan bir davrda, ya'ni Mo'lali va Bo'ston bosqichlarida mayitni etidan tozalab dafn etish holatlari oz bo'lsada paydo bo'la boshlagan. Bu ham zardushtiylikning ilk ko'rinishlaridan biri bo'lib, bu dalillar ilk zardushtiylik dini shaklanna boshlaganligidan guvohlik beradi.

- Zardushtiylik dini vujudga kelgan davrni avestoshunos olimi Meri Boys tomonidan so'nggi bronza davri, deb belgilangan. Bu davrda Baqtriya hududi bo'ylab paydo bo'lgan ibodatxonalar bu fikrni tasdiqlasa, yana bir ashyoviy dalil borki, bu Jarqo'tondan topilgan tumordir. Bu tomorning bir tomonida tuya, ikkinchi tomonida esa, tuya orqasidan quvlab ketayotgan odam aksi o'z ifodasini topgan. Zardushtni tuyakashlar avlodidan ekanligini inobatga olsak, ushbu muhr uning moddiy madaniyatda aks etganligini isbotlaydi.

- O'troq dehqon jamoasida amalda bo'lgan qabr tuzilishi, ya'ni "ayvonli lahad" qabrlar hozirgi zamon O'rta Osiyo xalqlari qabr tuzilishi uchun ham xarakterli bo'lib, bu xalqlarning dafn marosimlari bilan bog'liq urf-odatlarining tarixiy ildizlari bronza davriga borib taqalishini ko'rsatadi.

- O'rganilgan arxeologik madaniyatlar orqali o'sha davr aholisining dafn marosimlaridagi turil xil udumlar va ilk marotaba qo'llanilgan urf-odatlarni taxlil qilish orqali ularning dunyoqarashlarini ko'z o'ngimizga keltirish imkonini berdi.

- Ilk Tulxor qabrlarida tosh plitadan svastika belgisining uchrashi – bu Andronovaliklarning ramziy belgisi bo'lib, bugungi kunda Sopolli madaniyati bosqichlaridan topilayotgan sopol buyumlarda ham mavjud. Bu ayrim xalqlarning bu belgi ostida sobiq Sovet davridagi mustamlakachilik siyosatini yurgizish uchun qulay imkoniyat yaratgan. Ayrim xalqlar bu belgi ostida o'zlarining oliy irq ekanliklarini isbotlashga urinishda davom etib kelmoqda. Bu belgining turli hududlarda aynan Andronova qabilalari kirib kelgan hududlarda tez-tez uchrashi ularning bu qarashlari xato ekanligini isbotlaydi. YA'ni bu belgi ma'lum bir xalqqa tegishli emas, balki odoz erkin Andronova oriylarining ramziy belgisi bo'lib, ularning davriy sanasi mil.avv. 2 mining yillikning 2 yarmi bilan belgilanadi.

- Bronza davri urug' jamoalarida turli xil diniy tasavvurlar bo'lganki, ularning har biri o'ziga xos o'ringa egadir.

- Jarqo‘ton ibodatxonasining o‘rganilishi asosida monumental inshootning bo‘lishi, O‘zbekiston hududida davlatchilik asoslari bronza davridan shakllanganligini ilmiy asoslaydi. Ushbu monumental inshoot Surxon-sherobod vohasi doirasidagi yirik voha davlatchiligining diniy boshqaruv markazi bo‘lganligidan guvohlik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. // Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Том-7. Т.: “Ўзбекистон”. 1999. – Б. 132-155.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент, Маънавият. 2010. – Б.
3. “Дафн этиш ва дафн иши тўғрисида”ги Қонун. Адолат кўзгуси. // “Қадр топаётган кадриятлар”. 2011 й.
4. “Авеста”, Бундахишна, VI. Интарнет сайти: www.avesta.org.ru
5. “Авесто” Асқар Маҳкам таржимаси. Тошкент. “Шарқ”, 2001. –Б. 384.
6. Авеста: “Видевдот” китоби. (М.Исҳоқов таржимаси) – Тошкент, 2007. – Б. 96.
7. Абдуллаев Б. Новый памятник эпохи бронзы на юге Узбекистане. – ОНУ, 1977, №1. – С. 33-39.
8. Абдуллаев Б. Могильник Джаркутан. ИМКУ, вып. 15. Ташкент, 1979. – С. 22-35.
9. Аванесова Н.А. Новое в погребальном обряде сапаллинской культуры. «Археологические вести». № 4, Спб, 1995.
10. Аванесова Н.А., Ташпулатова Н. Символика огня в погребальной практике сапаллинской культуры. (по материалам исследования могильника Бустан VI). ИМКУ, вып.30. Самарканд, 1999. – С. 27-36.
11. Аванесова Н.А. Храмовые функции сакрализованных площадок кабристоня до исторической Бактрии – Бустан VI // Степи Евразии в древности и средневековье. Материалы Международной научной конференции, посвященной 100-летию со дня рождения М.П.Грязнова. СПб., 2002. – С. 110.
12. Аванесова Н.А. Двенадцатый полевой сезон на кабристоне Бустан VI // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2004-2005й. № 5, Фан. – Ташкент, 2006. – С.23-28.

13. Аванесова Н.А. Проблема относительной хронологии и периодизации Сапаллинской культуры. // Ўзбекистон археологияси, № 1, Тошкент, 2010. – С. 110-143.
14. Аванесова Н.А. Проявление степных традиций в Сапаллинской культуре // «Цивилизации и культуры Центральной Азии в единстве и многообразии». Ташкент, 2010. – С. 107-133.
15. Алексеев В.П., Ходжайов Т., Халилов Х. Население верховьев Амударьи по данным палеоантропологии. – Т., “Фан”. 1984.
16. Аскарлов А. Памятники андроновской культуры в низовьях Зарафшана // ИМКУ. – Вып 3. – Ташкент, 1962. – С. 28-41.
17. Аскарлов А. Сапаллитепа. – Ташкент, Фан. 1973. – С. 172.
18. Аскарлов А.. К вопросу о выделении культуры Сапалли. «Древняя Бактрия», Ленинград, 1974. – С. 26-32.
19. Аскарлов А. Расписная сопол Джаркутана // Бактрийские древности. 1976. – С. 17-19.
20. Аскарлов А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Ташкент, 1977. – С. 232.
21. Аскарлов А. Южный Узбекистан во II тысячелетии до н. э.. «Этнические проблемы истории Центральной Азии в древности (II тыс. до н. э.). Москва, 1981. – С. 167-169.
22. Аскарлов А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан. Ташкент, 1983. – С. 87.
23. Аскарлов А, Жўракулов М. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё. Самарқанд. 1984. – Б. 100.
24. Аскарлов А. Проблема становления раннегородской культуры на юге Узбекистана и ее связи Индостаном. // Древние культуры Средней Азии и Индии. – Л., «Наука», 1984. – С. 87-97.
25. Аскарлов А. Южноузбекистанский очаг древнебактрийской цивилизации. «Древние цивилизации Востока» Ташкент, 1986. – С. 44-54.

26. Аскарлов А, Буряков Ю.Ф, Квирквелия О.Р, Радилиловский В.В Теоретические и методологические проблемы исследования в археологии. – Т., Фан.1988.
27. Аскарлов А., Ширинов Т. Древнебактрийский храм огня в южном Узбекистане. «Градостроительство и архитектура. Культура Среднего Востока – развитие связи и взаимодействия». Ташкент, 1989. – С. 7-24.
28. Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. О некоторых группах культовой керамики Джаркутана // ИМКУ. – Ташкент: Фан, 1991. Вып. 25. – С. 33-56.
29. Аскарлов А, Ширинов Т., Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. Самарканд – 1993. – С. 162.
30. Аскарлов А. Ўрта Осиё қадимги дунёсининг асосий хусусиятлари. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар // 1994, № 6. –Б. 31-35.
31. Аскарлов А., Энг қадимий шаҳар. –Тошкент, 2001. 1, 26 б.т.
32. Аскарлов А., Зардуштийликнинг илк ватанидаги ибодатхона // Санъат тарихи. № 3. Тошкент, 2001. – Б. 4-7.
33. Аскарлов А., Шайдуллаев Ш. Бактриянинг бронза ва илк темир даври маданиятлари хронологияси. “Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда”. Тошкент, “Фан”. 2005. – Б. 36-48.
34. Бойс М. Зороастрийцы: верования и обычаи. –М.: 1987.
35. Виноградова Н.М. Новые памятники эпохи бронзы на территории Южного Таджикистана . «Центральная Азия . Новые памятники письменности и искусства». Москва, 1987.
36. Виноградова Н.М. Исследования контактов земледельческого и степного населения на юге Средней Азии (Южный Таджикистан) в эпоху поздней бронзы. «Археология, палеоэкология и палеодемография Евразии. Москва, 2000.
37. Виноградова Н.М. Поселение эпохи поздней бронзы-Ташгузар в Южном Таджикистане. «Древние цивилизации Евразии». М., 2001. – С. 138-149.

- 38.Виноградова Н.М., Гётцельт, Пьянкова Л.Т. Археологическая разведка в бассейне реки Кызылсу (Южный Таджикистан) РА, Москва, 2003. – С. 101- 114.
- 39.Каримова Д. Жарқўтон Ўзбекистон ҳудудидаги энг қадимги шаҳар. // Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганиш бўйича материаллар. Т. “Фан”, 2008.
- 40.Литвинский Б.А. О топорах эпохи бронзы из Таджикистана. Изв. АН Тадж. ССР. Отдел общественных наук № 1. Душанбе, 1961.
- 41.Литвинский Б.А. Таджикистан и Индия (примеры древних связей и контактов). Индия в древности. Москва, 1964.
- 42.Литвинский Б.А. Археологические открытия в Таджикистане за годы советской власти и некоторые проблемы древней истории Средней Азии. ВДИ № 4, 1967.
- 43.Литвинский Б.А., Соловьев В.С. Стоянка степной бронзы а Южном Таджикистане. «Успехи Среднеазиатской археологии, вып. 1, Ленинград, 1972. – С. 42-53.
- 44.Литвинский Б.А. Антонова Е.В., Виноградова Н.М. Раскопки могильника Тандыр-йул. АО (1975), 1976.
- 45.Литвинский Б.А., Зеймаль Т.И., Медведская И.Н. Отчет о работах Южнотаджикистанской археологической экспедиции в 1973. АРТ, вып. XIII (1973). Душанбе, 1977. – С. 76-92.
- 46.Мандельштам А.М. Могильник Ариктау в Бишкентской долине (Южный Таджикистан) // КСИИМК. № 76. –М., 1959. – С. 73-82.
- 47.Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. МИА, № 145, Ленинград, 1968.
- 48.Массон В.М Древнеземледельческая культура Маргианы. МИА, №73; М.-Л., 1959.
- 49.Массон В.М. Карадепе у Артыке // Тр. ЮТАКЭ, – Том X, 1961. – Ашхабад, – С. 328-329.

- 50.Ранов В.А. Коробкова Г.Ф. Туткаул-многослойное поселение гиссарской культуры в Южном Таджикистане. СА, № 2, 1971.
- 51.Ранов В.А. Истоки, внешние влияния и внутреннее развитие гиссарской культуры // В кн. «Древнейшие культуры Бактрии: среда, развитие, связи». – Душанбе, 1982. – С. 21.
- 52.Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Маршрутные исследования памятников Северной Бактрии. «Из истории античной культуры Узбекистана». Ташкент, 1973.
- 53.Ртвеладзе Е.В. Разведочное изучение бактрийских памятников на юге Узбекистана. «Дрениая Бактрия». Ленинград, 1974а.
- 54.Ртвеладзе Э.В. Разведки в предгорьях Байсунтау. «Археологические открытия 1973 года». М., Л., 1974.
- 55.Ртвеладзе Э.В. К характеристике памятников Сурхандарьинской области ахеменидского времени. СА, № 2. М, 1975.
- 56.Ртвеладзе Э.В. Бронзовый кинжал из Вахшувара. СА № 1, 1981.
- 57.Сагдуллаев А.С. Древнеземледельческие поселения предгорий Байсунтау.
- 58.«История и археология Средней Азии». Ташкент, 1978
- 59.Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. Тошкент. 2002.
- 60.Сарианиди В.А. Памятники позднего энеолита юго-восточной Туркмении // Археология СССР. САИ. Б. 3-8. Часть 4. М., 1965.
- 61.Сарианиди В.И. Исследования памятников Дашлинского оазиса. «Древняя Бактрия» Москва, 1976.
- 62.Сарианиди В.И.. Древние земледельцы Афганистана. Москва, 1977.
- 63.Сарианиди В.И..Раскопки монументальных зданий на Дашли 3. «Древняя Бактрия». М., 1984.
- 64.Сарианиди В.И. Протозороастрийский храм в Маргиане и проблема возникновения зороастризма // ВДИ. – М.: 1989. №1.

- 65.Шайдуллаев Ш. Северная Бактрия в эпоху раннего железного века. Цивилизация Турана – Мавераннахра. Ташкент, 2000.
- 66.Шайдуллаев Ш.Б. Илк шаҳарнинг археологик белгилари. “Ўзбекистон тарихи”, № 3, Тошкент, 2002.
- 67.Шайдуллаев Ш.Б., Дитрих Хуфф, Рахимов К. «Жарқўтон - 2002» Археологические исследования в Узбекистане 2002 год.
- 68.Шайдуллаев Ш. Авесто ва моддий маданият. “Ўзбекистон тарихи”, № 3, Тошкент, 2004.
- 69.Ширинов Т. Орудия производства и оружие эпохи бронзы Среднеазиатского междуречья. Т.: «Фан», 1986
- 70.Ширинов Т. Алтари огня из храма Джаркутана-памятника эпохи развитой бронзы юга Узбекистана. ИМКУ, вып. 23. Ташкент, Фан. 1990. – С. 69-79.
- 71.Ширинов Т «Винодельная» Джаркутан – памятник эпохи бронзы юга Узбекистана. ИМКУ, вып. 24. Ташкент, Фан. 1990а. – С.18-29.
- 72.Эсанов М. Бронза даврида Қадимги Бактрия ва Марғиёна аҳолисининг зоолатрик диний қарашлари // Ўзбекистон моддий маданият ёзма манбаларда. – Т., Фан. – Б. 92-97.